

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK
HAMDA TARIX KAFEDRALARI**

I.M. SAIDOV, SH.A. HAYITOV, R.I.SAIDOVA

**«OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI
YANGI TARIXI»
fanidan**

**O‘Q U V – U S L U B I Y
QO‘LLANMA**

**200000 – Gumanitar fanlar va fanlar ta’lim sohasi
5220200 -Tarix bakalavr yo‘nalishlari uchun**

SAMARQAND – 2017

**«OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI YANGI TARIXI»
fanidan o‘quv–uslubiy qo‘llanma.
Samarqand – 2017. 80-bet.**

Ushbu o‘quv – uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari tarix yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar :

Saidov I.M. – SamDU Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası professori, tarix fanlari doktori.

Hayitov Sh.A. – BuxDU Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori.

Saidova R.I. – SamDU Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası assistenti.

Mas’ul muharrir :

Q.K.Rajabov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar :

Raxmonov K. J. – BuxDU Tarix kafedrası mudiri, t. f. n.

Raxmatullaev M. R. – SamDU Umumiy tarix kafedrası dostoni.

To‘raqulov B. T. – SamDU Umumiy tarix kafedrası dostoni.

Shukrullayev Y. A. – BMTI Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i, t. f. n.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma BuxDU Tarix kafedrası 2-son bayonnomasi (28-noyabr, 2016-yil), Ijtimoiy–iqtisodiy fakulteti ilmiy kengashining 3-son bayonnomasi (3-yanvar, 2017-yil) bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Samarqand – 2017.

KIRISH

Sharq tarixi umumjahon tarixining ajralmas bir qismidir, shuning uchun umumjahon tarixi jarayonidan tashqarida emas. Yangi zamon boshlarida Sharq mamlakatlarida feodal munosabatlar hukmron edi, haqiqatdan ham taraqqiyot notekis borgan:

A) Yaponiya, Hindiston, Xitoy feodal munosabatlar rivojlagan davlatlar.

B) Yaqin va O'rta Sharqdagi davlatlar qoloq, feodal patriarxal holda edi.

V) Afrika qit'asi davlatlari urug'-qabilachilik bosqichida edi.

Bu o'lkalar jahon sivilizatsiyasiga o'z hissasini qo'shgan, qulay iqlim sharoitlari tufayli madaniy o'simliklarning ko'pchiligi kelib chiqqan manbadir. Yuqorida aytib o'tilganidek, yangi zamon boshlarida Sharq mamlakatlari feodal bosqichda bo'lib, taraqqiyotdan orqada qolayotgan va rivojlangan mamlakatlar ta'sir doirasiga tushib, xomashyo bazasi rolini o'ynayotgan edi.

Barcha mamlakatlar ibtidoiy jamoat tuzumini boshdan kechirganlar, ammo ularning hammalari ham quldorlik tuzumini bosib o'tmadilar. Ba'zi xalqlar ibtidoiy jamoa tuzumidan feodal tuzumga o'tganlar. Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichida kishilar mukammalroq mehnat qurollari yaratganlar, ular mehnat unumdorligini oshirganlar. Feodal tuzum davrida garchi juda sekinlik bilan bo'lsa-da, mehnat qurollari rivojlangan va kishilarning mehnat qilish mahorati oshib borgan. Feodalizmda yuqoriga suv chiqaradigan charxpalak qo'llana boshlagan, shamol tegirmonlari va kuchli damlari bo'lgan domna pechlari qurilgan. Qo'l bilan aylantiriladigan urchuq yaratilgan va to'quvchilik dastgohi takomillashtirilgan. Kishilar porox, qog'oz tayyorlashni o'rganganlar. Kompasni, soatni, kitob chop etishni ixtiro qilganlar.

Biroq vaqti kelib, feodal tuzum ham ishlab chiqarishning rivojiga to'sqinlik qila boshlagan. Bu hol uni halokatga olib kelgan va bozor iqtisodiga o'tishga sabab bo'lgan. XVI-asrda Yevropaning bir qator davlatlarida manufakturalar, yirik korxonalar paydo bo'lib, ularda mehnat taqsimoti qo'llanilgan. Bu tufayli mehnat unumdorligi oshgan. Sharqda esa Osiyocha ishlab chiqarish usuli – bir jamiyat ichida yetakchi tuzum bilan birgalikda oldingi jamiyat xususiyatlarining bir davrda namoyon bo'lishidir.

Sharq davlatlarining orqada qolish sabablari quyidagilardan iborat:

1. Sharqda xo'jalik asosan sun'iy sug'orishga asoslanadi. Sun'iy sug'orishni irrigatsiya inshootlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Feodal tarqoqlik davrida o'zaro urushlar kuchayib irrigatsiya inshootlari buzilgan.

2. Qishloq jamoasi tartibining uzoq vaqt saqlanib qolishi. Savdo munosabatlari sust bo'lib, mehnat taqsimoti va pul munosabatlari rivojlanishiga to'sqinlik qilib keldi.

3. Sudxo'rlik uzoq vaqt saqlanib qolingan bo'lib, uning asosi iqtisodni yiqitish, siyosiy uyushgan jinoyatga aylandi.

4. Sharqda qul savdosining uzoq vaqt saqlanib qolganligi mamlakatlar taraqqiyotiga ta'sir qilgan. Amerikalik olim Dyubua «XVII- XVIII-asrlarda 100 mln. qul Afrikadan Amerikaga olib ketilgan», deb yozadi.

5. Yevropa davlatlari bu mamlakatlarni asosiy mustamlaka va yarim mustamlakaga aylantirib, mustamlakachilikka zo'r berdi, bu Sharq tarixiy taraqqiyotining asosiy to'sig'i bo'ldi. Sharqda yuzdan ortiq davlat bor. Shularning hammasi (Ikkitasidan tashqari, Yaponiya va Efiopiya) mustamlaka va yarim mustamlaka edi.

6. Bu davlatlar (Sharq mamlakatlari)da feodal munosabatlar uzoq saqlanib qolingaligi, lekin asosiy omil mustamlakachilik tartibi edi.

Jahon tarixi uchun ingliz burjua inqilobi voqealari yangi zamon tarixini boshlanishiga asos qilib olingan. Sharq mamlakatlari yangi tarixini davrlashtirish masalasida oldingi sobiq sho'ro olimlari 2 guruhga

bo‘linadi: 1) Galperin va Guber tarafdorlari. 1) Guber – Sharq tarixini ingliz burjua inqilobidan boshlash kerak, deb hisoblaydi.

2) Resner – bu Sharq yangi davrini XVIII-asr oxiridan boshlash kerak, deb hisoblaydi.

Bundan tashqari fanda aniq to‘la barqarorlashmagan XV-asr oxiri – XVI-asr boshlari davridan boshlash to‘g‘risidagi qarashlar ham mavjud.

Osiyo va Afrika xalqlari yangi zamon tarixi kursining maqsadlari:

Alohida olingan Sharq mamlakatlari tarixi misolida Osiyo va Afrikada kechgan iqtisodiy ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, jarayonlar tarixini o‘rganishdan iborat. Kurs ikki tarixiy davrga bo‘lib o‘rganiladi:

1) XVII-asrning o‘rtalaridan tokim monopoliyalar hukmroligiga asoslangan kapitalizmga qadar (XIX-asrning 70-yillarigacha)

2) 1870-yildan 1918-yilgacha.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada ayrim Osiyo mamlakatlarining XVII-asr o‘rtalaridan – XX-asr boshlariga qadar taraqqiyoti masalalari bir qator mavzular misolida o‘rganiladi.

TOKUGAVA SYOGUNATI DAVRIDAYAPONIYA

Reja:

1. Yangi zamon boshlarida Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va izolyatsion siyosat.
2. Yaponiyaning ichki va tashqi siyosati.
3. XVIII-asrning oxiri – XIX-asr boshlarida Yaponiya.

Tayanch atamalar:

Syogun – qo‘mondon harbiylar tartibidagi boshqaruvchi

Xarikari – o‘z joniga qasd qilish

Busida – Tokugava syugunati davridagi harbiylar ustavi

Simabara voqealari – 1639-yilda Yaponiya hududidan ajnabiylarni haydab chiqarishga sabab bo‘lgan izolyatsion siyosatni boshlangan voqea

Samuray – syogun armiyasidagi harbiy xizmatchi

Gurunch qo‘zg‘olonlari – XVIII-asrda Yaponiyada narx-navo va soliqlarning ko‘payishiga qarshi qo‘zg‘olon

Yaponiya dunyo siyosiy xaritasining Uzoq Sharq regionida joylashgan «Quyosh mamlakati» deyiladi, tarixiy adabiyotlarda. Yaponiyada feodal munosabatlar o‘zining yuksak cho‘qqisiga XIV-XVI-asrlarda ko‘tarilganligi qayd etiladi. Biroq feodal munosabatlar Sharq mamlakatlari-dan farq qiladi. Xo‘jalik asosini mayda dehqonchilik xo‘jaligi ishlab chihari-sh tashkil qilgan. Yaponiya yangi zamon boshlaridagi umumiy ahvoli mamlakatni mayda knyazliklarga bog‘lanib ketganligi bilan tavsiflanadi. Feodal davrda yuzaga kelgan Yaponiya shaharlari, Hindiston va Osiyoning boshqa shaharlari singari feodal hukmdorlarning qarorgohlari edi, lekin ular iqtisodiy ahamyatni juda barvaqt olg‘a kiritdilar, ba’zilar esa «erkin shahar» (sakai) maqomiga erishdilar yoki byurger tipidagi o‘z-o‘zini boshqarish tuzish uchun kurashdilar.

O‘rta asrdagi Yaponiya Osiyodagi qo‘shni mamlakatlar – Xitoy va Koreya bilan madaniy va iqtisodiy aloqada bo‘lib rivojlanadi. Madaniyatning ba’zi elementlarini, jumladan yozuvni, buddizm, konfutsizm singari diniy oqimlarni Yaponiya Xitoydan o‘zlashtirgan. Yaponiyaliklar

bilan Yevropaliklar XVI-asrning 40-yillaridan boshlab qiziqadi. 1542-yilda Kyu Syu orolining Janubiy qirg'oqlarida ilk bor portugaliyaliklar paydo bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab bir necha yil davomida Portugaliya kemalari tez-tez Yaponiyada bo'ldilar. Portugaliyaliklar Yaponiyaga qurol-yaroq eltib, u yerdan oltin olish evaziga Yaponiya bilan savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatdilar. 1549-yildan boshlab Yaponiyada katolik missionerlari o'z faoliyatlarini boshlab yubordilar. Missionerlar va savdogarlar ba'zi bir yapon feodallariga tayanar edilar. Bular Yevropaliklar kelib turadigan port shaharlarida joylashgan rayonlarning hukmdorlari edi. Ular Yaponiyaning tashqi savdosi kengayishi evaziga juda katta daromad olar edilar. Shuningdek, Yaponiya feodallari Yevropa qurolini olishdan katta manfaatdor edilar. XVI-asrning 80-yillarida Kyu Syu orolida 100 mingta xristian bor edi. XVII-asrning boshlarida esa Yaponiyada ingliz va Gollandiya savdogarlari faollasha bordilar. Yevropaliklarning Yaponiyada paydo bo'lishi u yerda markazlashgan feodal davlat tuzish bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. XVI-asrning oxiri – XVII-asrning boshlarida bu uchun iqtisodiy va siyosiy shart-sharoit yuzaga keldi. Oldingi yuz yilliklarda sekin-asta bo'lsa-da shaharlar rivojlandi, savdo-sotiq kengaydi va ishlab chiqarish kuchlari o'sib bordi. To'xtovsiz yuz berayotgan dehqon qo'zg'olonlari feodallarni o'z kuchlarini birlashtirishga undardi. Markazlashtirish g'oyasining kuchaytirishga, shuningdek, Yevropa kolonizatorlarining xavfi ham sabab bo'ldi. Feodal Yaponiyada imperatorlik hokimiyati o'ziga xos mavqeda ega edi. Sinfiy jamiyatga o'tish davrida yuzaga kelgan, Mikado yoki Tenno unvonida bo'lgan Yaponiya imperatorlari dinastiyasi qo'shini yuz yilliklarda mavqeini saqlab qoldi. Sintoizm («xudolar yo'li») nomli yapon dini quyosh xudosi Amaterasuning avlodi bo'lgan Mikadolarning ilohiy kelib chiqishini e'tirof etardi. Lekin imperatorlar hukmdorligi nomigagina edi. Bu sharoitda feodal taraqqiyotni tugatish uchun kurash imperatorlik hokimiyatni mustahkamlash yo'lidan emas, ba'zi bir feodal guruhlarining mamlakatni nazorat qilish uchun kurash tusini oldi. XVII-asrning boshlarida Ie Ya Su Tokugava butun Yaponiyaning udel knyazlarini o'z hukmdorligiga bo'y-sundirdi va «taysegun» – «buyuk sarkarda», «bosh qo'mondon» nomli

merosiy bo'lgan Syogun unvonini qabul qildi. Shu vaqtdan boshlab 250-yildan ortiqroq yil davomida Yaponiyani Tokugava Syogunati dinastiyasi boshqardi. Syogun mamlakatning cheklanmagan hukmdori edi. Ilohiy imperatorga turli xil marhamatlar ko'rsatdilar. Quyosh va oy o'z yo'llarida davom etganliklari kabi, imperator o'z yuragi daxlsizligini saqlab qolishi shart deb, ta'kidladilar, Tokugovachilar. Shuning uchun u osmondagidek, saroyda yashaydi. Syogun barcha davlat majburiyatlarini belgilaydi va hukumat ishlarini imperatorlar hal qilishiga muhtoj emas. To'rt dengiz o'rtasidagi yer besaranjom bo'lsa, bu syogunning gunohidir. Uchinchi syogun Iemitsu Tokugava (1823-1651) davrida yuzaga kelgan syogunat rejimi markazlashgan feodal davlat shaklida edi. Tokugava syogunati davrida feodal munosabatlar XVII-asrda Yaponiya territoriyasi asosan uch orolni o'z ichiga oladi. Bular Xansyu, Kyusku, Sikonyu va shunga yaqin bo'lgan boshqa orolchalar edi. Xokkaydo oroliga yurish qilgan Yaponiyaliklar orolning janubiy qirg'ogini egalladilar. XVII-asrning boshida Yaponiya aholisi 17 millionni tashkil qilardi, oxirida esa 25 million kishini tashkil qiladi. Tokugava Yaponiyasida yerning xo'jayinlari syogun, feodallar, xram va monastirlar edi. Yaponiya yerlarining yaroqli qismini Tokugava uylari ixtiyorida edi. Mamlakatning qolgan yerlariga udel knyazlari xo'jayin edi. Asosiy feodal sinflar Tokugava davrida bir necha razryadga bo'lingan edi. Kiotoning imperatorlik poytaxti saroy a'yonlari alohida guruhni: kugeni tashkil qilardi. Kuge a'zolari xo'jako'rsinga imtiyozli mavqega ega bo'lsalar ham, yer egasi emas ular imperator singari syogundan xizmat haqi olar edilar. Ko'pchilik harbiy dvoryanlik vakillari samuraylarni (xizmatchilarni) tashkil qilib, «buke» ya'ni harbiy uylarga qarashli edilar. Uning yuqori qismini dayme knyazlari tashkil qilardi. Tokugava davrida yerlaridan 10 ming koku hosil oladiganlar (1 ming 500 tonna gurunchga teng) daromad keltiradigan feodallar daymelar hisoblanardi. Daymening bir qismi – fuday dayme Syogunat tashkil topgunga qadar Tokugava uyining ittifoqchilari edi. Syogunat tashkil qilingandan so'ng ular syogunlarning ishonchli kishilari va tayanchlari bo'ldilar.

Daymening boshqa qismini, ya'ni todzoma daymeni (begona dayme-lar) ilgari Tokugavaga qarshi kurashgan boy knyazlar tashkil qilardi. Syogunat o'rnatilgandan so'ng ular Tokugava hukumati nazoratiga o'tdilar. Lekin o'z knyazliklarini boshqarishda todzama daymenlari mustaqillikni saqlab qoldilar. Ko'pchilik samuraylarning yerlari yo'q edi. Ko'pchilik samuraylar qashshoqlashib ketgan edi. Syogun, knyazlar va samuraylar ekspluatatsiya va katta soliqlar evaziga yashardilar. Tokugava syogunatining asosiy vazifasi dehqonlarni ezish edi. Bundan maqsad Tokugava rejimi dehqonlarning qarshiligini sindirishdan iborat edi. Yaponiya tarixchisi Eydziro Xondzening yozishicha, aholini qo'l va oyog'idan «bog'lab» qo'yishgan edi, ularga hamma narsa cheklangan, ular go'yo soliq to'lash uchun yashardilar. Hatto, gurunch iste'mol qilish dehqonlarga ta'qiqlangan edi. Bu narsalar yapon dehqonchiligining halokatiga olib keldi. «Yapon shaharlari», «hunarmandchilik» va «savdo» mamlakatning Tokugava rejimi tomonidan birlashtirilishi savdoning rivojlanishi va yapon shaharlarining o'sishiga turtki bo'ldi. Tokugava davrida Yaponiyada 200 dan ortiq shahar va shahar tipidagi posyolkalar bor edi. Edo, Osaka, Kioto kabi yirik shaharlar 100 minglab aholiga ega edi. Yaponiya shaharlarining hunarmandchilik mahsulotlari bozori chaqqon edi. Hunarmandlar soliq to'lashga majbur edilar. Hunarmand-larni ezish hisobiga oldi-sotdi ishlarining roli oshdi. XVII-asrda kapitalistik tipdagi ayrim manufakturalar paydo bo'ldi. Shaharlarda past tabaqa savdogarlarining ta'siri kuchli edi. Tokugava davridagi Yaponiya iqtisodiyotida savdo asosiy rol o'ynardi. Savdo shahardan tashqari qish-loqlarni ham qamrab oldi. Yirik savdogarlar knyazlardan gurunchni sotib olar edilar. Dehqonlarning ekspluatatsiya qilinishi, feodal munosabatlar-ning inqirozi davrida Tokugova syogunati hukm surdi. Tokugova rejimining asosiy maqsadi eziluvchilar sinfini nazoratda ushlash edi. Aholi quyidagi 4 tabaqaga bo'lingan edi:

1. Samuraylar.
2. Dehqonlar.
3. Hunarmandlar.
4. Savdogarlar.

Samuraylarning imtiyozli mavqei esga solinib turilardi. Tokugava qonunlaridan birida shunday deyilgan edi: Agar oddiy harbiylarga yoki boshqa saroy a'yonlariga hurmatsizlik, itoatsizlik qilinsa unaqa kishi chopib tashlanadi. Mutloq feodal rejimini saqlab qolish maqsadida syogun hukumati obro'li 5 nafar knyaz oqsoqollari tomonidan boshqarilardi. Oqsoqollar davrida «yosh boshliqlar kollegiyasi mavjud bo'lib, ular ma'lum ministrliklarni boshqarar edi. “M E T S U K E” («mustahkam ko'z») nomli amaldorlar ham katta huquqga ega edi. Ular yuqori lavozimdagi shaxslarni yashirincha kuzatar edilar. Poytaxtdan tashqari joylarda mahalliy garnizon boshliqlari bo'lmish hukumat vakillari boshqarar edi.

Tokugava syogunati Yaponiyaga Yevropaliklarning kirib kelishi davrida yuzaga keldi. XVII-asrning 30-yillarida syogun Iemiku Tokugava hukumati Yaponiyani tashqi dunyodan izolyatsiya (o'rash) maqsadida bir qancha chora-tadbirlar qo'lladi. Yevropaliklarni mamlakatdan chiqarib yuborish va xristianlikni ta'qiqlash to'g'risida farmonlar chiqardi. 1640-yilda Yaponiyada Portugaliyaning Asminya (Makao) missiyasi taqiqlashlarni qayta ko'rib chiqish haqida syogunatga murojaat qiladi, lekin missiya a'zolarining ko'pchiligi qatl qilinadi va tirik qolganlari bilan quyidagi mazmunda xat jo'natiladi. Portugaliyaliklar, bizni bu dunyoda yo'q deb o'ylasinlar. Yaponiya qirg'oqlariga kelgan kemalar yo'q qilinib, kema a'zolari o'ldiriladi. Yaponiyaliklarga esa mamlakatni tark etish o'lim bilan tugaydi. Bu ishlardan maqsad Yaponiyada Yevropaliklarning kirishiga yo'l qo'ymaslik va feodal tartibning saqlab qolinishi edi. Syogun va feodallar, agar Yevropa bilan aloqa qilinsa, ularning rejimlari barbod bo'lishidan qo'rqrar edilar. «Yopiq mamlakat» siyosati asosan 1637-yilda Nagasaki yaqinidagi Simabarada ro'y bergan dehqonlar qo'zg'olonidan so'ng kuchaytirildi. Bu qo'zg'olon janubiy Yaponiyaga kirib kelgan katolik missionerlar olib kelgan xristianlik bayrog'i ostida o'tdi. «Yopiq mamlakat» siyosatidan so'ng Yevropa bilan savdo aloqasi tugadi.

XVII va XIX-asrning birinchi yarmida maorif va fan sohasida o'sish boshlandi. Samuray bolalari va knyaz bolalari o'qitiladigan hukumat

maktablaridan tashqari, shaharlarda shaxsiy maktablar ham paydo bo'la boshladi. XVIII-asrda bu maktablar soni 270 taga yetdi. Ular orasida texnik mutaxassislik va meditsinadan saboq beradigan o'quv yurtlari bor edi. Syogun poytaxtida amaldorlar tayyorlaydigan akademiya bor edi. 1762-yilda «Yevropacha bilimlarni» o'rganadigan o'quv yurti ochildi. Bu ikki o'quv yurti oliy maktablarning boshlanishi edi. Tokugava davrida matematika maktabini yaratgan Tokakadzu Seni (1642-1708) buyuk olim edi. XVII-asr boshida Yaponiyada gazetalar nashr qilina boshlandi.

Yaponiyaning Tokugava tomonidan markazlashtirilishi ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga olib keladi. XVII-asr davomida ekin yerlari kengaydi, qishloq xo'jalik texnikasi, hunarmadchilik rivojlandi, ichki savdo kengaydi. Shu asosda Yaponiyaning feodal iqtisodiyotida kapitalistik hayot tarzi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlari feodal iqtisodiyotning ichki qarama-qarshiligi evaziga o'sib bordi. Mutlaq feodal tartib o'rnatishlar XVIII-asr o'rtasiga kelib iqtisodiy turg'unlikka olib keldi. Soliqlar bir necha yil oldin olindi. Bu esa dehqonlar qo'zg'oloniga olib keldi. Bu qo'zg'olonlar to'liqini XVIII-asr – XIX-asrning boshida butun Yaponiyani qamrab oldi.

XVIII-asr oxiridan boshlab dehqon qo'zg'olonlari bilan bir qatorda shaharlik qashshoqlarning feodallarga qarshi chiqishlari yuz berdi.

1787-yilda Osaka aholisi gurunch narxining balandligi sababli qo'zg'olon ko'tardi. Keyin esa «Gurunch qo'zg'oloni» nomini olgan ommaviy chiqishlar Yaponiyaning boshqa shaharlarini ham qamrab oldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Siyogunat tartibi nima?
2. Takugava siyogunati qaysi yillarda yashagan?
3. Izolyatsion siyosat mohiyatini tushuntiring?
4. Yaponiyaning yangi davr iqtisodiy va madaniy hayotiga tavsif bering?

XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX-ASRNING BOSHLARIDA AFG‘ONISTON

Reja:

1. Ikkinchi anglo - Afg‘on urushi va uning oqibatlari.
2. Abdurahmon va Habibullaxon amirligi davrida Afg‘onistonning ichki va tashqi siyosati.
3. Afg‘onistonda ijtimoiy va siyosiy fikr rivoji, «Yosh afg‘onlar» tashkilotining tuzilishi va faoliyati.

Tayanch atamalar:

Ikkinchi anglo-afg‘on urishi – 1878-1881-yillarda Angliya va Afg‘oniston o‘rtasidagi urush.

Pushtunvayli – Afg‘onistondagi pushtu qabilanlarining tashqi dushmaga qarshi birlashishga qaratilgan odati.

Roulinson memorandum – 1870-yillarda ishlab chiqilgan Afg‘onistonni bo‘ysundirishga qaratilgan reja.

«Axloq majmuasi» – Afg‘on ma’rifatchisi Mahmudbek Tarzining asari.

Yosh afg‘oniylar – Afg‘onistonda progressiv konstitutsion monarxiya jamiyatini tuzish tarafdorlari.

Habibiya, Harbiya – 1903, 1909-yillarda yosh afg‘oniylar tomonidan Qobulda ochilgan dunyoviy maktablar.

«Siroj ul axbor Afg‘oniya» – «Afg‘on xabarlari yoritgichi» gazetasi, 1911-1919-yillarda yosh afg‘oniylar nashr qilgan.

Afg‘oniston – Yaqin va O‘rta Sharqda joylashgan, asosiy qismi tog‘liklardan iborat o‘lkadir. Uning maydoni Fransiya davlati bilan tengdir. Bu hududda qadimdan afg‘onlar, tojiklar, o‘zbeklar, qozoqlar, turkmanlar yashab kelganlar. Boshqa Osiyo mamlakatlariga qaraganda afg‘onlarda feodal munosabatlar jarayoni ancha kech kirib kelgan. Afg‘oniston Yangi zamon boshlarida siyosiy jihatdan tarqoq edi. XVIII-asrning 40-yillariga kelib, Afg‘onistonda 3 ta beklikning roli oshdi. Qobul bekligi, hamda Hirot, Qandahor bekliklarining boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyi

baland bo'lgan. XVIII-asrning 40-yillarida Afg'oniston Eron hukmdori Nodirshoh Afshor davlati tarkibiga kirgan. 1747-yil Nodirshoh o'z qo'shinlari tomonidan qo'zg'olon ko'tarib, Nodirtepada o'ldirildi. Undan so'ng hokimiyat jagirlarning qo'liga o'tib, Afg'oniston qo'shinlarining boshlig'i Ahmadshoh Durroniy qo'liga o'tadi. U afg'on turkiy qavmlari vakili bo'lgan. U juda ham aqlli, dono, bilimdon va tadbirkor bo'lganligi uchun Durroniy (durigavhar boshli) taxallusi qo'yilgan.

Ya'ni uning kallasi durga o'xshatilgan. 1747-yilda Nodirshoh o'limidan so'ng, Ahmadshoh Durroniy Afg'oniston hududlarini birlashtirib, «durroniylar sulolasi» hukmronligiga asos soldi. 1747-yildan 1828-yilgacha Durroniy avlodlari taxtni boshqardi. O'sha paytlardan boshlab Afg'oniston yerlarida donli ekinlar ko'p ekiladigan bo'ldi. Ahmadshohning boshidagi tojda oltin tojning o'rniga bug'doydan yasalgan chamber bo'lgan. Shuning uchun uning gerbida ham bug'doy tasviri tasvirlanagan. Afg'oniston shohi nafaqat o'ziga tegishli bo'lgan rayonlarni, balki qo'shni hududlarni ham o'ziga bo'ysundirdi. Afg'onistonda feodalizm bir tekisda rivojlanmagani, ko'pchilik afg'on qabilanlarida urug'-qabila-chilik qoldiqlari saqlangan bo'lib, Do'st Muhammad taxtga kelgan. Yerga feodal egalik qilish jarayoni XIX-asrgacha davom etdi. Geografik jihatdan qulay joyda joylashgan Kobul bekligida harbiy munosabatlar har tomonlama rivojlangan edi. 1826-yilda uning hukmdori Do'st Muhammad amir qilib saylandi. Bu vaqtda afg'on qabilalari ko'pchiligi ko'chmanchi hayot tarzida kun kechirib, chorvachilik bilan shug'ullanardilar. 1828-yilda Do'st Muhammad taxtga keldi va bu sulola o'z umrini tugatdi. Ayni ana shu tarixiy davr Yevropa rivojlangan tarixiy, Sharq mam-lakatlarini o'z ta'siriga olish uchun kurashni kuchaytirgan davrga to'g'ri keldi. Ayniqsa, XIX-asrning 2-yarmida Afg'onistonni Angliya o'z ta'siriga olish va uni o'z mustamlakasiga aylantirish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi. Afg'oniston qulay savdo yo'llari ustida joylashgan edi. Hindiston esa bu vaqtda Angliyaning ta'siri ostida edi. Inglizlar Afg'onistonni egallash va uni bo'ysundirish maqsadida, juda katta mablag'lar, yangi, saralangan qo'shin to'pladilar. XIX-asrda afg'onlarda feodal jamiyat va davlati bo'lib, shu vaziyatdan foydalanib, Angliya mustamlakachilari

Afgʻonistonga kirib kela boshladilar. Ular Sharq xalqlarini Sharqliklar orqali «boʻysundirish» siyosatini yurgizdilar.

1839-yilda inglizlar Afgʻonistonga qarshi birinchi marta urush eʼlon qildi. Oʻlkadagi togʻlarning koʻpligi va afgʻon xalqining jangovor qobiliyati yuqori ekanligi, chet ellik bosqinchilarni bu oʻlkada oʻrnashishiga toʻsqinlik qildi. Afgʻonlarning kam sonli aholisi va natural xoʻjaligi kapitalistik Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda, ular oʻrtasida juda katta farq bor edi. Afgʻon qabilalari tarqoq boʻlsa ham, urush harakatlari 1841-yilgacha davom ettirdi. Ushbu harbiy toʻqnashuvlar Afgʻoniston tarixiga «birinchi anglo-afgʻon urushi» nomi bilan kirgan. Afgʻon pushtunlari odati «Pushtunvayli» deyilgan. Tarixchi Resnerning yozishicha: Agar bir pushtunning uyiga mehmon kelsa, ikki-uch oy davomida ochiq chehra va xushmuomilalik bilan mehmondorchilik qilishi kerak boʻlgan.

Tashqi dushman hujum qilganda pushtunivayli odati boʻyicha ichki nizolar unutilib afgʻonlar birlashgan. Inglizlarning bu hududlarni boʻysundirishi, boshqa Osiyo mamlakatlari singari oson kechmadi, qabilalarning bir qismini boʻysurdilsalar, orqadan yana boshqa qabila qoʻzgʻolon koʻtarardi.

Shunday qilib, afgʻonlar inglizlarga qarshi mardonavor jang qilib, XIX-asr 70-yillarining boshida ham ular oʻz mustaqilliklarini toʻla saqlab qola oldilar. Lekin mamlakatning janubiy-sharqiy chegaralariga Britan mustamlakachilari kirgan edi. Demak, birinchi anglo-afgʻon urushi inglizlar uchun muvafaqqiyatsizlik bilan tugab, afgʻonlar gʻalaba qilgan. Angliya hukumatining tashqi ishlar boʻlimi, Afgʻoniston masalasini hal qilish uchun, bir necha bor muhokama qilib, uni boʻysundirish rejalarini ishlab chiqish uchun maxsus komissiya tuzdi. Komissiya bir qator rejalar qabul qilib, ular orasida Raulinson memorandumiga ham qabul qilindi. Raulinson memorandumiga binoan quyidagi masalalar hal qilinishi kerak edi.

1. Afgʻonistonni toʻgʻridan-toʻgʻri bir zarbada boʻysundirish mumkin emas. Buni birinchi anglo-afgʻon urushi isbotladi. Eng avvallo, bu xalqning psixologik ijtimoiy holatini oʻrganish kerak.

2. Hindiston va Afg'oniston chegaralarida Angliya kuzatuv punktlarini tashkil qilish kerak. Ular doimo Afg'oniston haqidagi ma'lumotlarni to'plab borsin.

3. Afg'onistonning asosiy shaharlari hisoblangan: Qobul, Hirot, Qandahor, Balx, Juzjon, Maymana, Saripul, Samangan kabi joylarda ingliz vakolatxonalari ochishga erishish kerak.

Ingliz vakolatxonalari doim Afg'oniston vaziyati haqida ma'lumotlar yetkazib tursin deyilgan edi.

Kalikutta general-gubernatorligi bu vazifalarni hal qilish uchun, qancha mablag' ketishi va hisob-kitobi, tashkiliy tomonlarini o'z zimmasiga olishi kerak edi. 1870-yillarda Roulinson memorandumini amaliyotga tadbiiq qilish harakatlarini boshlandi. Ingliz harbiy qismlari maxsus lagerlar tashkil qilib, Afg'oniston chegaralariga joylashtirildi. 1874-yildan boshlab bu harakatlar boshlandi. Tezlik bilan ingliz-hind davlati Afg'oniston hukumatidan u yerda britan rezidensiyasi o'rnatilishi va muhim aloqa yo'llarida ingliz ofitserlari qo'riqbonlik qilishini talab qildilar. Sharq krizisi va rus-turk urushi 1877-1879-yil britanlar Afg'onistonga hujumi davrigacha davom etdi. Rossiya Turkistonni bo'ysundirib, Afg'oniston chegarasiga yaqinlashib qolgan edi.

1878-yil 3-noyabrda Angliya, Afg'oniston hududiga bostirib kirdi. O'sha paytda Afg'oniston amiri Sheralixon bo'lgan. Sheralixon rus hukumati bilan yaxshi munosabatda edi. Shuning uchun uni «rusparast amir» deyishgan. Inglizlar bostirib kelganligi to'g'risidagi xabarni Rossiyaga yetkazdi. O'sha paytda Rossiyaning Angliyadagi elchisi Stoletov ingliz hukumati boshlig'i Bikonsfildga norozilik notasini yuborgan. Shimoliy viloyatlarga qarshi siljigan, Angliya Rossiyadan ajralmaslikni so'ragan. Ya'ni shunday qilib, ikkinchi anglo-afg'on urushi boshlanib ketdi. Kalikuttada tashkil qilingan general-gubernatorlik inglizlarni juda katta mablag' bilan ta'minladi. Angliya hukumati Rossiyaning har qanday talabini inkor qiladi. Afg'oniston amiri Sheralixon Afg'onistonning Shimoliga ketdi. O'zining qo'riqchilari bilan taxt uning o'g'li Yoqubxonga qoladi. Yoqubxon inglizparast amir bo'lganligi uchun inglizlar bilan 1879-yilda Gandamakda shartnoma imzolaydi. Bu noteng shartnoma

bo'lib, Kobul va uning atrofidagi yerlar Angliya ta'sir doirasida bo'lib, amirga 600 ming rupiya subsidiya belgilandi.

Shimolda 1880-yilda Amir avlodlaridan Abdurahmon Kobulga qarab qo'shin tortadi. O'ziga xos uch hokimiyatchilik vujudga keladi. Shimolda Abdurahmon hukumdor bo'lgan, Qobul va Qandahor inglizlar qo'lida, Pushtiniston esa, o'ziga-o'zi mustaqil bo'lgan. 1880-yilda Maymanda degan joyda afg'onlar bilan inglizlar o'rtasida katta to'qnashuvlar bo'ladi. Bu urushda afg'onlar g'alaba qiladi. 1881-yilning boshlarida afg'onlar inglizlarni haydab chiqardilar.

Inglizlarga qarshi xalq harakatlari birinchi Qobulda bo'lib o'tadi. Afg'on soldatlari tog'larning orasida berkinib olib, Angliyaning otliq askarlariga zarbalar berdilar. Ingliz mustamlakachilariga qarshi afg'on xalqi qahramonona kurash olib bordilar. Garchi ularning qurollari oddiy bo'lsa ham, Angliya soldatlari esa zamonaviy qurollangan, saralangan jangchilardan iborat edilar. Inglizlarga qarshi afg'onlar, tojiklar, o'zbeklar, xazarlar amir Yoqubxonga urushni «muqaddas urush» deb e'lon qilishini talab qila boshladilar. Ba'zi ingliz soldatlari afg'onlarning ancha mustahkam bo'lgan shaharlariga yashirindilar. Lekin ularning hayoti xavf ostida qoldi. Hindiston chegaralarida esa afg'on pushtunlari turdilar. Lekin afg'on soldatlarining yagona bir rahbarlari yo'q edi. Inglizparast Abdurahmon va inglizlar o'rtasida kelishuv amalga oshiriladi. Unga binoan Abdurahmon amir deb tan olindi. O'shanda inglizlar tomonidan bir qancha qurol-aslahalar, katta mablag'lar va pul berildi. Abdurahmon bundan tashqari Angliya bilan diplomatik aloqalarni olib borishini aytdi. Qandahor esa yagona knyazlik bo'lib, ajralib chiqdi va inglizlar u yerda o'zlarining harbiy qismlarini qoldirdilar. Nihoyat, 1878-1881-yillarda davom etgan 2-anglo-afg'on urushi inglizlarning mag'lubiyati bilan yakulangandi.

Afg'oniston yarim mustamlaka holda bo'lib, inglizlarga qaram edi. 1881-yilda Afg'oniston taxtiga Abdurahmon keldi. 1881-1901-yillarda afg'onlarning amiri Abdurahmon davlatni boshqarishni o'z qo'lga oldi. U mamlakatda bir qator islohotlar o'tkazdi. Bu islohotlar ma'muriy, harbiy siyosiy va madaniy sohalaridagi islohotlar bo'lib, Yevropa tipidagi vazirliklarga asos soldi. Armiyani zamonaviy qurollar bilan qurollantirdi. O'zi esa katta savdo tizimidan foyda olib, boyib ketdi. Chunki Afg'onis-

ton qulay savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgan edi. U ikki marta ko'tarilgan pushtunlarning qo'zgonidan (1894-1897 y.) foydalanib, inglizlarni afg'on chegaralaridan uloqtirmoqchi bo'ladi. Ammo, pushtunlar uyushmaganligi tufayli ularning maqsadlari amalga oshmadi. Tashqi siyosatda Afg'onistonni birlashtirishga harakat qildi.

Afg'onistonning tog'li rayonlaridan Kofiristonda aholi ko'p xudolikka e'tiqod qilardi. Xuddi ana shu yerga qo'shin tortib borib, uning barcha aholisini islom diniga o'tkazdi va Kofiristonni Nuriston deb o'zgartirdi. Nuriston so'zi «islom nuri bilan nurafshon bo'lgan yurt» - degan ma'noni anglatadi. Abdurahmon Afg'oniston taxtini boshqargan davrda mamlakat qoloq, agrar bo'lib qolaverdi.

Abdurahmon vafotidan keyin o'g'li Habibullaxon (1901-1919 y) davlatga hukmronlik qildi. Habibullaxon Afg'oniston tarixida inglizlarga moil amir sifatida qayd qilinadi. Abdurahmon o'ziga qarshi chiqqan barcha kishilarni mamlakatdan haydab chiqardi. Ammo, Habibullaxon esa odamlarga ya'ni qamoqdagilarga amnitsiya berdi. Suriya, Iroq, Hindiston va Turkiyada muhojirlikda yashab kelayotgan afg'onlar Afg'onistonga, ya'ni o'z yurtlariga qaytdilar. Ulardan ayniqsa, Suriya va Turkiyada bo'lgan muhojirlar, ilg'or fikr va g'oyalar bilan qaytdilar. Bu davrda Afg'oniston va Yevropa o'rtasida juda katta farq bor edi. Yevropa juda ham taraqqiy qilib, rivojlangan edi. 1903-yilda Habibullaxon dunyoviy ilm beradigan maktab ochdi, mazkur dargoh «Habibiya» deyilgan. Bu maktabda asosan, turli mamlakatlarda muhojirlikda bo'lgan afg'on progressiv namoyondalari dars berishgan. «Habibiya» maktabida Afg'oniston tarixiga jurnalist, lirik shoir, matbaachi, o'z davrining ilg'or siyosatshunosi bo'lgan Mahmudbek Tarzi ishladi. Mahmudbek Tarzi Turkiyada muxojirlikda bo'lgan edi.

U Turkiyadagi «Yosh turklar» harakati programmasiga moyil inson edi. Shuning uchun Afg'onistonda 1906-yilda «Jonboshi Javonxoi Afg'on» - «Yosh afg'onlilar» tashkilotini tuzadi. Yoki tarixga bu «jonboshi mashrutxo» – «yosh konstitutsiyachilar» partiyasi nomi bilan kirgan. Bu guruhning dasturida quyidagi masalalar bor edi:

1. Amirlik tartibini saqlagan holda, konstitutsion monarxiya tartibini joriy qilish;

2. Afgʻonistonda diniy maktablar bilan birgalikda, dunyoviy maktablarni ochish. Tarzi oʻz nutqida hozirgi tarixni bilmay turib, jahondagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirib boʻlmaydi, deydi. Afgʻon bolalari boshidagi neyronlarni qoʻzgatish kerak;

3. Yoshlarni chet ellarga oʻqishga yuborish;

4. Afgʻonistonning zamonaviy armiyasiga asos solish. Ayniqsa, ular dasturida inglizlarga boʻysunmaslik, mamlakat milliy mustaqilligini taʼminlash «asosiy vazifa qilingan edi».

Yosh afgʻoniylarning maqsadi va vazifalari Mahmudbek Tarzining maqolalarida va uning «Axloq majmuasi» kitobida bayon qilingandir. Uning kitobi pushtin tilida yozilgan. Yosh afgʻoniylariga qarshi amirning amakisi Nasrulloxon oʻzining «Keksa afgʻoniylar» tashkilotini tuzdi. 1907-yilda ingliz general-gubernatori Chelemfort Habibullaxonni Kalikuttaga chaqirdi. «Yosh afgʻoniylar» esa amirni bormaslikka daʼvat qildilar. Biroq Habibullaxon Hindistonga boradi va 1907-yildan boshlab Habibullaxonning mamlakatda obroʻsi tushadi.

1909-yilda «Yosh afgʻoniylar» tayyorlaydigan harbiy maktablar ochildi. 1909-yilda «Yosh afgʻoniylar» oʻzlarining matbuot organlariga asos soladilar, ularning gazetasi nomi «Siroj-ul Axbor al-Afgʻoniya - («Afgʻon xabarlar yoritgichi») boʻlib, bu gazeta Afgʻoniston uchun juda katta ahamiyatga ega boʻlgan. Chunki gazetada Afgʻonistonning milliy mustaqillikka erishishiga daʼvat qilindi. Ayniqsa gazeta 1914-yil birinchi jahon urushi yillarida, jangovor maqolalari bilan chiqqan. Gazeta juda koʻp Sharq malakatlariga tarqaldi. Hatto, Buxoroda 120 ta obunachisi boʻlgan. Bu esa Afgʻonistonda ommaviy axborot vositalaridan matbuotchilik roli oshganligidan dalolat berardi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Ikkinchi anglo-afgʻon urushi arafasida Afgʻonistonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli qanday edi?

2. Ikiinchi anglo-afgʻon urushi tafsilotlari haqida gapiring?

3. Amir Abdurahmon qaysi sohalarda islohotlar oʻtkazdi?

4. «Yosh afgʻoniylar» dasturida qanday gʻoyalar ilgari surilgan?

5. Mahmudbek Tarzining matbaachilik faoliyatini yoriting?

CHIN SULOLASI DAVRIDA XITOIY. XITOIYDA 1 VA 2-QORADORI URUSHI, ULARNING OQIBATLARI

Reja:

1. Yangi zamon boshlarida Xitoyda Chin sulolasi hukmronligining oʻrnatilishi.
2. Xitoyning ichki ahvoli va tashqi siyosati.
3. Inglizlarning Xitoyga oʻz taʼsirini oʻtkazish uchun kurashi. Qoradori savdosi.
4. 1- va 2-qoradori urushlari, Xitoyning yarim mustamlakaga aylantirilishi.

Tayanch atamalar:

«Poytaxt xabarchisi» – Xitoy poytaxti Pekinda chiqarilgan 1-gazeta (XI-XX-asrlar).

Shenshi – Xitoyda olimlar tabaqasi.

Manjurlar – Xitoy Shimolida yashagan qabilalar 1644-1911-yillarda sulolaviy hukmron qabilalar.

Qoradori urushi – 1839-1842-yillarda Xitoy-Angliya urushi, Xitoyning yarim mustamlakaga aylantirilishi.

Qizil yoʻlli kiyimlilar – imperator qarindoshi boʻlgan 2-tabaqa vakillari.

Xitoy – qadimdan jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biridir. Insoniyat tarixida 1-feodal jamiyat Xitoyda boshlangan edi. Xitoy yer yuzi aholisi foydalanayotgan koʻpchilik kashfiyotlar vatanidir. Xitoy yuksak madaniyatga ega boʻlgan qadimiy mamlakat boʻlib, xususan yozuv, til, adabiyot, din va siyosiy taʼsirini Osiyoning juda koʻp xalqlari va davlatlarida uchratish mumkin. XVI-asrda Xitoyda kitob nashr qilish joriy qilindi. Oʻrta asrlarning rivojida Xitoy 1-roʻznomani nashr qildirgan. Bu «Poytaxt xabarchisi» roʻznomasi edi. XV-XVI-asrlardayoq Xitoy shaharlarida savdo kengaygan, hunarmandchilik yuksalgan, manifakturalar keng yoyila boshlagan edi. Xitoy uzoq asrlik tarixi davomida oʻzining

Shimoliy chegaralari yaqinida yashagan ko'chmanchi qabila va xalqlarining bosqinlariga uchradi. Yangi zamon boshlarida Xitoyda Min sulolasining krizisi kuchayib, soliqlar zulmiga qarshi juda katta qo'zg'olon kelib chiqdi. Qo'zg'olonchilar mamlakat poytaxti Pekinni egalladilar. Ko'pgina pomeschchik va feodallarning yer mulklari musodara qilindi. Shundan keyin, Xitoy feodallari o'z xalqiga xiyonat qilib, ko'chmanchi manjurlarni yordamga chaqirdilar.

Manjurlar Xitoyga bostirib kirib, 1644-yilda xalq qo'zg'olonini bostirdilar. Ammo feodal manjurlar qo'zg'olonni bostirgach, ular Xitoydan chiqib ketmadilar. Manjurlar mamlakatda hukmronlik qilayotgan Min sulolasini ag'darib, o'zlarining Chin sulolasiga asos soldilar. Bu sulola 1644-yildan 1911-yilgacha Xitoyda hukmronlik qildi. Manjurlar iqtisodiy jihatdan qoloq edilar. Ular mahalliy aholiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lib, Xitoyning Shimolidagi aholiga va Min sulolasi vakillariga nisbatan qirg'in uyushtirdi. Manjur feodallari eng yaxshi ekin yerlarini bosib oldilar va Xitoy aholisidan o'lpon va soliqlar yig'dilar. Manjurlar jangovor qabilalar edi. Ular o'zlarining, avvalo yetti bayroqli armiyasiga asos soldi. Mamlakatni harbiy tartiblar asosida boshqarishni joriy qildilar. Xitoyda imperator hokimiyati sira cheklanmagan hokimiyat edi. Manjurlar aholini bir necha tabaqaga bo'ldilar. Imperator va uning xonadonidagilar birinchi tabaqa bo'lib, «Sariq yo'lli kiyimlilar» deb atalgan. Imperator «osmon o'g'li» degan unvonga ega edi. Imperator o'zini quyoshga o'xshatish uchun boshdan oyoq sariq kiyim kiyar, sariq rangli chopon va kiyim kiyish, sariq choyshab va sariq parda tutishga faqat imperatorgina haqli edi. Imperator quyosh farzandi, u quyoshdan ham ulug'. Imperator o'z xalqiga doimo nur sochib turadi» – degan g'oya shu sariq yo'lli kiyim ramzi bo'lgan. Xitoyda imperator xonadonidan boshqa hech kim sariq kiyim kiyishga haqqi bo'lmagan. Boshqa hech kimning kiyimida hatto sariq ip ham bo'lishi mumkin emas edi.

Ikkinchi tabaqa «shenshe» tabaqasi bo'lib, shenshe – «olim» degan ma'noni bildiradi. XVIII-asr boshlarida hamma fanlardan yaratilgan ilmlarni shenshe bo'lmoqchi bo'lgan kishilar o'qib o'rgangan. Ma'lum bir

kunda komissiya tuzilgan va shenshelikka davogar odamlardan imtihon olingan. Shuning uchun shenshe tabaqasiga o'tish juda qiyin bo'lgan. Shenshe tabaqasining o'zi ikkiga bo'lingan:

1. Katta shenshe.
2. Kichik shenshe.

Katta shenshe lavozimini olganlar viloyatlarda sudya, hokim, hujjat yurituvchi va markaziy davlat idoralarida ishlash huquqiga ega bo'lgan. Katta shenshening 1-yillik daromadi ming yanni tashkil qilgan.

Kichik shenshe tabaqasi kichik sudya, oqsoqol, jamoa maktablarida o'qituvchi kabi lavozimlarda ishlagan. Ularning bir yillik daromadi 100 yanni tashkil etgan. Shenshe past tabaqadan o'zini ustun qo'yardi. Ularnin o'z kiyimi bo'lgan. Senshelar uzun qirrali, keng ayvonli shlyapa va qora plashch kiyganlar. Kambag'allar quyi tabaqani tashkil etib, ular soliq to'lashga mahkum etilgan.

Manjurlar davlatining siyosiy negizi konfutsiychilik ta'limotiga asoslangan. Bu ta'limot asosida qo'yidagi qoida yotadi: «Davlat boshlig'i davlat boshlig'idek bo'lishi kerak, ota-otadek, o'g'il-o'g'ildek bo'lishi kerak», ya'ni har bir tabaqa o'z vazifasini qat'iy bajarishi lozim: davlat boshlig'i davlatni boshqarishi, fuqarolar davlat boshlig'iga va yuqori amaldorlarga bo'ysunishi kerak. Bundan tashqari manjurlar davlatining ideologiyasi Daochilik ta'limotiga ham asoslangan. «Dao» – ulug', «daochilik» «ulug' yo'l» degan ma'noni bildiradi. Daochilik ta'limotiga ko'ra imperatorga yo'lni xudo ko'rsatadi. Bu ulug' yo'lning boshida imperator turadi. Hamma imperator ortidan ergashishi kerak.

Ijtimoiy taraqqiyot darajasi jihatidan xitoyliklardan keyinda turgan manjurlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumiga sezilarli yangilik kiritgan olmadilar. Manjurlar qishloqda eski feodal tartiblarni tiklab, ularni zo'r berib himoya qildilar. Bu davrda Xitoyda mavjud bo'lgan feodal yer egaligi imperator qishloqlari, davlat yerlari, dindorlar yerlari va harbiylar yerlaridan iborat to'rt kategoriyaga bo'linar edi. Bu yerlarning har biriga dehqonlar biriktirib qo'yilar edi. Agar Hindistonda yerga feodal egaligining formasi davlat – feodal mulki bo'lsa, Xitoyda yerga pomeschchik mulki hukmronlik qilgan. Pomeschchiklar o'zlari uchun

ekin ektiradigan yerlariga ega bo'lmay, odatda dehqonlardan barshchina talab qilmasalar ham, dehqonlar aslida pomeshchiklarning krepostnoylari edilar. Dehqon o'zi tug'ilgan joydagina, ya'ni suh urug'idagi odamlar ko'milgan qabriston bor joydagina aholi ro'yxatiga yozila olardi. Dehqonlar o'zi tug'ilib o'sgan qishloqdan chetga keta olmas edilar. Dehqonlarning yerlari bo'lmaganligi sababli ular pomeshchik yerini ijaraga olishga majbur edilar va buning uchun pomeshchiklarning asosiy qismida yer u yoqda tursin, ot-ulov ham yo'q edi. Dehqonlar yerni qo'l kuchi bilan, motiga yoki suka bilan ishlar edilar, ba'zida ular o'zlarini sukaga qo'shar edilar. Hukmronlik qilgan feodal manjurlar dehqonlarni davlatga qarashli yuklarni tashishga, yo'llarni tuzatishga, boshqa majburiyatlarni o'tashga majbur qilardilar. Dehqonlarning ko'pi ochlikdan o'lardi. Dehqonlarning o'z bolalarini qullikka sotishlari oddiy bir hol bo'lib qolgan edi. Xitoy shaharlarida gadoy ko'p edi. Xitoy shaharlarida (dengiz bo'yidagi) esa kambag'allar ko'pincha umr bo'yi qayiqlarda yashardi. Manjurlar Xitoy shaharlarini o'z tayanch nuqtalariga aylantirgan edilar. Feodal hukmronligi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarga qaramay mamlakatda savdo-sotiq va hunarmandchilik ma'lum darajada rivojlanib bordi. XVII-asr oxiriga kelib tashqi savdoning o'sishi ko'zga tashlanadi. Angliya, Gollandiya, Fransiya choy, chinni idishlar, xom ipak, gazmollar, badiiy hunarmandchilik buyumlari yuborilib turilardi. Shimolda esa Rossiya, Mo'g'uliston, O'rta Osiyo bilan savdo-sotiq ishlari olib borilardi. Chin davlati Xitoydagi eski davlat tuzumidan andoza olib tuzilgan bo'lsada, lekin istilochilarning xalq ommasini ezish formalari turlicha edi. Xitoydagi asosiy ekspluatator tabaqalar imperator qarindoshlari bo'lgan shenshelar – olimlar, xitoy feodallari (jentrilar) va amaldorlar (mandarinlar) o'z yer va mulklarini dehqonlarga ijaraga berardilar. Manjurlar va Xitoy dvoryanlari dehqonlarni ekspluatatsiya qilish evaziga katta boylik orttirgan edilar. Xitoyning turli rayonlarida stixiyali tarzda ko'tarilib turgan dehqon qo'zg'olonlari manjur imperiyasini larzaga soldi. Feodal zulmi va manjur zolimlariga qarshi kurashish maqsadida «Triada», «Oq nilufar» kabi bir qancha yashirin tashkilotlar vujudga keldi.

XVII-asrning 80-yillarida Xitoy hukumati boshqa davlatlar bilan mumkin qadar yaqinlashmaslikka harakat qildi. Rus podshosi Aleksey Mixaylovich 1654-yil o'zining elchisi Baykovni Pekinga yubordi. Xitoyliklar uni qabul qilmadi, 1664-yillarda buxorolik savdogar Saidqul Rossiya podshosi nomidan Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Uzoq Sharq masalasida Xitoy va Rossiya munosabatlari keskinlashdi. Ruslar chegaralarni aniqlash uchun 1689-yil Venyuqov va Favorov boshchiligidagi elchilarni Albazin voyivodaligiga yuboradi. 1689-yil 7-avgustda Nerchinsk shahrida Rus – Xitoy muzokaralari boshlandi. Bu muzokara 3 bosqichda o'tdi. Xitoy imperatori Di Edi bilan Chegara masalalarida kelisholmaydilar. Buning sababi Uzoq Sharqdagi joylarni xitoyliklar ham, ruslar ham to'liq bilmas edilar.

1689-yil 23-avgustda muzokaralarning 2-bosqichi boshlandi. Kelisholmagach, har bir davlat Uzoq Sharqdagi joylarning xaritasini chizsinlar va o'z da'volarini belgilasinlar, degan fikrga keldilar.

1689-yil 23-avgustda shartnoma imzolandi va bu shartnoma «Nerchinsk shartnomasi» – deb ataladi. Shartnomaga ko'ra Albazin vovodaligining yerlari Xitoyga beriladi. Rossiya elchilari 2-yil deganda Moskvaga yetib boradilar. Podsho Petr I (1682-1725) ularning faoliyati natijasidan norozi edi. Chunki bu shartnomada Xitoy tomonining qo'li baland kelgan va Rossiya chegaralarining ayrim qismlari va Albazin vovodaligi Xitoyga berib qo'yilgan edi. Rossiya-Xitoy muzokaralari 1728-yil Kjaxtin buxtasida yana qaytadan boshlandi. Shartnomaga muvofiq Xitoy savdogarlari Rossiyada, Rossiya savdogarlari Xitoyda 5 foizli boj bilan savdo qilish vakolatini oladi. 100 ta rus yoshlari Xitoyga xitoy tilini o'rganish uchun yuboriladi. XVIII-asrning oxirida Xitoyda manjur sulolasidan norozilik kuchayadi va bir paytning o'zida mamlakat atrofida ko'plab chet el harbiy va savdo kemalari paydo bo'ladi. Ularning asosiy maqsadi Xitoy portlarini o'z mamlakatlari savdosi uchun ochish edi. Ingliz, fransuz, golland kemalari Xitoyning Shanxay, Syaomin, Guanchjou kabi portlarida to'planadi. Mamlakatning ichkarisida manjurlarga qarshi yashirin tashkilotlar paydo bo'ldi. Bunday tashkilotlardan «Triada» Uch nuqta, «Oq nilufar», «Osmon va yer» kabi

tashkilotlar faoliyati kuchaydi. Bu tashkilotlarga badavlat kishilar ko'plab a'zo bo'lib kirdi.

1813-yil «Oq nilufar» tashkilotining tashabbusi bilan Xitoyda katta qo'zg'olon yuz berdi. Bu qo'zg'olon Xitoyning Shimoliga va markaziga yoyiladi. 1821-yilga kelib yangidan qo'zg'olonlar boshlandi. Dehqonlarning ahvoli og'irlashdi. Shu paytda Xitoy bozori chet mamlakatlar uchun ochiladi. Yevropaliklarning Xitoyga suqilib kirishi buyuk geografik kashfiyotlardan boshlangan edi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining Xitoy bilan aloqalarida missionerlar katta rol o'ynadi. Xitoydagi missionerlar xristian dinini targ'ib etishdan ham ko'proq G'arbiy Yevropa ta'sirini o'tkazishga harakat qilardilar. Yevropaliklar Xitoyda savdo-sotiq qilishdan ham ko'ra ko'proq talonchilik bilan shug'ullanardilar.

1757-yil Xitoy hukumati Yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishini ta'qiqladi va faqat gollandlargaгина Kanton portida savdo-sotiq qilishga ruxsat berdi. Quruqlikda Rossiya bilan bo'lgan savdo-sotiq ishlari davom etdi. Xitoyliklar mamlakatga mustamlakachilarning suqilib kirishini istamas edilar.

Oqibatda XIX-asrning o'rtalaridan boshlab Yevropa mamlakatlari va AQSH Xitoyga bostirib kira boshladilar. Shu davrdan boshlab, garchi mustaqil davlat deb hisoblansa-da, Xitoy asta-sekin qaram mamlakatga aylana bordi. Angliyaning Xitoyga nisbatan o'tkazgan siyosatidan boshqa kapitalistik mamlakatlar tezda o'rnak oldilar. AQSH vakili 1844-yil 3-iyulda harbiy eskadra bilan qo'rqitib Xitoy hukmdorlarini talonchilik harakteridagi shartnomani imzolashga majbur etdi. Shundan keyin, 1844-yil 24-oktabrda Fransiya Xitoyga teng huquqli bo'lmagan shartnomani qabul qildirdi. Bu shartnomalarning qoidalari Xitoy territoriyasidan istagancha foydalanish, mamlakatni boj sohasidagi huquqlardan mahrum etishni ko'zda tutardi, aholini kamsitardi. Ular mamlakat iqtisodiy rivojiga jiddiy tug'anoq ham bo'ldi. Xitoyning chet elliklar tomonidan asoratga solina boshlashi Xitoy dehqonlarining ahvolini yanada og'irlashtirib yubordi. Yevropadan texnika yordamida ishlab chiqarilgan arzon mollar konkurensiyasi Xitoy hunarmandlarini xonavayron qildi,

Xitoy manufakturalariga putur yetkazdi. Xitoy yigiruvchilari va to'quvchilari Hindistonning bo'z to'quvchilari kabi qirila boshladilar.

XVIII-asr 2-yarmida Angliya Hindistonni bo'ysundirgandan so'ng, Uzoq Sharq regionida savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgan Xitoyni ham bo'ysundirishga harakat qildi. Xitoy Angliya uchun juda katta xomashyo bazasi bo'lishi mumkin edi.

1793-yil inglizlar katta sovg'a-salomlar bilan Makartney ekspeditsiyasini Xitoyga yubordi. Makartney general bo'lib, unga Xitoyning portlariga eltadigan savdo va harbiy yo'nalish xaritasini tushirish vazifasi yuklatilgan edi.

Ekspeditsiyaning maqsadi:

1. Ingliz savdogarlariga Xitoyda eng past boj bilan savdo qilish huquqini olish.
2. Inglizlar savdo ombori va bazalarini vujudga keltirish.
3. Xitoyning ba'zi portlarini ijaraga olish.
4. Xitoy shaharlarida ingliz vakillarini, yoki konsulliklarini vujudga keltirish.

Xitoy imperatori Georgiy–III yorlig'ini va sovg'a-salomlarini qabul qildi. Angliya qiroliga sovg'a salomlar yubordi, ammo shartlarni qabul qilmadi. Ekspeditsiya natijasiz tugaganidan so'ng, inglizlar kontrabanda yo'li bilan Xitoyga kira boshladilar. 1816-yil inglizlar Xitoyga 2-ekspeditsiyani yubordilar. Lekin bu ekspeditsiya ham natijasiz tugadi. Shundan so'ng inglizlar o'z sanoat mahsulotlari bilan Xitoy bozorini kasodga uchratish yo'lini tutdilar.

Angliya o'z mollarini Hindiston bozoriga eksport qildi. Bu mollar Hindistondan Xitoyga yana qayta eksport qilinadi. Bu fanda reeksport deyiladi.

XVIII-asr oxiridan boshlab inglizlar Bengaliya qora dorisi, yoki nashasini kontrabanda yo'li bilan Xitoyga kiritib boshladi. Bengaliya qora dorisi inglizlar mustamlakalardan olinadigan daromadning 1/7 foizini tashkil etar edi. Bu davrda Xitoyda qora doriga talab kuchli bo'lgan. Zamondosh yilnomachilarning yozishicha, XVIII-asr oxiri – XIX-asr boshlarida xitoylik oddiy kishidan tortib imperatorgacha yonida qora dori

chekish uchun trubka olib yurardi. Shu davrda Xitoyda 2 xil tanga muomalada bo'lgan. Pul birligi lyan bo'lib, kumush lyan va mis lyan yuritilgan. Mis lyan kumush lyanga nisbatan 4,7 marta past qadrga ega edi. Xitoy dehqonlari mis lyan bilan soliq to'laydi. Qora dori esa kumush lyanga sotilardi. Natijada Xitoy xazinasidagi katta miqdordagi kumush tangalar Angliyaga chiqib ketdi. Hukumat a'zolari o'rtasida qora dori savdosidan norozi kishilar guruhi paydo bo'ldi. Xitoyga qora dori kiritish geometrik progressiya bilan ko'paygan. XVIII-asr oxirida Xitoyga 2000 yashik qora dori kiritilgan bo'lsa, 1824-yilga kelib 12000 yashik qora dori kiritilgan.

1837-yil 39000 yashik, 1840-yil 40000 yashik qora dori Xitoyga kiritilgan. Bu qora dori kiritilgan yashiklarning har birida 4 pud – 64 kilogramm miqdorda qora dori bo'lgan. Imperator saroyida 2-guruh paydo bo'ldi.

1. Tsi-Shan tarafdorlari.
2. Lin Tszi Chen tarafdorlari.

Tsi-Shan tarafdorlari qora dori kiritilishiga xayrixoh bo'lgan va ular bundan juda katta manfaat ko'rganlar. Tsi-Shanning mol-mulki musodara qilingan vaqtda uyidan 30 kg oltin plitasi, 1000 dona brilliant chiqqan.

Lin Tszi Chen tarafdorlari inglizlar kiritgan qora dorini dengizga uloqtirganlar. Bu ikki guruh o'rtasidagi kurashda Lin Tszi Chen tarafdorlari g'alaba qilgan. Natijada 1836-yil imperator Daugan maxsus edikt qabul qildi. Ediktga binoan qora dori kiritish ta'qiqlangan. Inglizlar ingliz fuqarolarining huquqlari poymol qilingani uchun Xitoy suv chegaralariga harbiy kemalarni kiritadi. Bu voqea 1840-yil iyunda bo'lgan va aslida Ingliz-xitoy urushi boshlangan edi.

Zamonaviy qurollarga ega inglizlarga qarshi kurashishga imperatorning yuragi dov bermaydi va Tsi-Shanning undashi bilan 1836-yilgi ediktini bekor qiladi. 1840-yil iyunidan 1842-yil avgustiga qadar Xitoy-ingliz tuknashuvi bo'ldi. Bu tarixga «1-qoradori urushi» – degan nom bilan kirgan. Urush jarayonida xitoyliklar o'zlarining harbiy jihatdan sustligini ko'rsatdi. Xitoy harbiy qo'mondonligi kim jangda o'lsa, uning o'limidan so'ng mukofotlash haqida qaror chiqargan. Urushda inglizlar-

dan o'lgan va yaradorlar soni bor yo'g'i 520 kishini tashkil etgan bo'lsa, xitoyliklardan 20 ming kishini tashkil etgan. 1842-yil 29-avgustda ingliz korabli Korenvallisda xitoy-ingliz shartnomasi imzolandi. Bu tarixga «Nankin shartnomasi» – bo'lib kirdi. Shartnomaga ko'ra Xitoy portlari Angliya tashqi savdosi uchun ochib qo'yildi. Nankin shartnomasining shartlari:

1. Xitoy yengilganligini tan oldi.
2. Ingliz savdogarlariga Xitoyda eng past boj, 5 foizlik boj bilan savdo qilish huquqi berildi.
3. Ingliz savdo kemalari uchun Xitoyning 5 ta porti ochib qo'yildi. Bular: Syaomin, Amoy, Fudjou, Ninbo, Shanxay, Guanchjou.
4. Xitoy yengilganligi uchun Angliyaga 21 million lyan tovon to'ladi.
5. Gonkong, Syangan, xitoyliklarning tasarrufidan chiqdi.

Angliya Xitoyni anneksiya qildi, ya'ni Xitoy hududiga xo'jayinlik qila boshladi. Nankin shartnomasida qora dori haqida hech qanday gap yo'q edi.

1843-yilgi qo'shimcha shartnomaga ko'ra ingliz savdosi uchun ochib qo'yilgan portlardagi settementlar ya'ni yirik kapitalistik davlatlarning yarim mustamlaka mamlakatdagi alohida ajratib olingan rayon va shaharlari hamda kontsessiyalarning ya'ni yirik kapitalistik mamlakatlarning qoloq mamlakatlar territoriyasidagi konlarni ijaraga olish roli kuchaydi. Umuman 1-qora dori urushining yakuni Xitoy yarim mustamlakaga aylandi.

1843-1844-yillarda 2-qora dori urushi ham bo'lib o'tdi. Garchi Xitoy yarim mustamlaka davlatiga aylantirilgan, Angliya Xitoyga suqilib kira olgan va Xitoy urushdan voz kechgan bo'lsa-da, Angliya o'zini kuch-quvvatini yana bir bor namoyish etish va Xitoyga mustahkam o'rnashib olish uchun 2-qora dori urushini boshlab yubordi. Angliya yengilishi aniq bo'lgan Xitoy ustidan yana bir bor g'alaba qozondi. Biroq bu urush unchalik katta siyosiy ahamiyatga ega emas edi. 1- va 2-qora dori urushidan so'ng Xitoy rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning yarim mustamlakasiga aylandi. Xitoyda Angliya, AQSH, Fransiya singari davlatlar o'zlarining firmalari va korporatsiyalarini tashkil etdilar.

Ayniqsa, Angliyaning ta'siri kuchli bo'lib, mamlakatda eng imtiyozli boj, 5 foizlik boj hisobidan savdo-sotiq olib borardi. Kapitalistik mamlakatlar Xitoy imperatoriga Xitoy uchun noteng hisoblangan shartlarni qabul qildirdilar. Ular quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi.

a) Ijaraga olingan hududlar: bunda strategik jihatdan qulay bo'lgan ba'zi bir viloyatlar va provintsiyalarni ajnabiylar o'z hisobiga tortib oldi.

b) «Ochiq portlar siyosati» joriy qilindi.

Unga asosan Xitoyning dengizda joylashgan shaharlari barcha g'arb mamlakatlari savdo kemalari uchun ochib qo'yildi. Ishchilarni yollash ularga haq to'lash portlarni boshqarish va savdo kemalari to'xtaydigan joylarni aniqlash chet elliklarning o'z ixtiyorida edi. Natijada XIX-asr oxirida kapitalistik mamlakatlar Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Rossiya, Yaponiya Xitoyda «Ochiq eshiklar doktrinasini» o'rnatdilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Chin sulolasi hukmronligi o'rnatilishi arafasida Xitoyda siyosiy ahvol qanday edi?

2. XVIII-asrda Xitoyning tashqi siyosatiga tavsif bering?

3. Xitoy - Angliya munosabatlari haqida gapiring?

4. «Qora dori» savdosi Xitoy iqtisodiyotiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatdi?

5. «Qora dori» urushida nega Xitoy yengildi? Siz bu voqeani qanday izohlaysiz?

6. Xitoy - Angliya urushining oqibatlari haqida gapiring?

XVII-XIX-ASRLARDA ERON. BOBIYLAR HARAKATI

Reja:

1. Eronda Kajarlar sulolasi hukmronligining oʻrnatilishi va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvol.
2. Eronning tashqi siyosati. Rossiya-Eron, Angliya-Eron munosabatlari.
3. Eronda bobiylik harakatining vujudga kelishi. Bobiylik oqimi.
4. Bobiylik qoʻzgʻoloni va uning oqibatlari.

Tayanch atamalar:

Kajarlar sulolasi – Eron XVIII-asr oxiridan 1925-yilgacha hukmronlik qilgan sulola.

Guliston va Turkmanchoy shartnomalari – 1813, 1828-yillardagi Rossiya va Eron shartnomalari.

Bob – Ali Muhammad (1820-1849) Darvoza – Imom Mahdi bilan xalq oʻrtasida oʻzini vositachi deb hisoblagan.

Bobiylik qoʻzgʻoloni – 1848-1852-yillarda Erondagi diniy xarakterdagi qoʻzgʻolon.

Amir Nizom – Shohning 1-vaziri. XIX-asr 2-yarmida Erondagi islohotlar tashkilotchisi.

XVII-asrda ham Eron feodal monarxistik taraqqiyot bosqichida turgan davlat edi. Eron Sharqning yirik davlati boʻlib, nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlatlardan biri edi.

1712-yilda bu mamlakatni afgʻonlar istilo qildi. Afgʻonlarning hukmronligi 1730-yilgacha davom etdi. 1730-yildan boshlab esa, yaʼni afgʻonlar hukmronligiga barham bergandan soʻng Eronni afshorlar sulolasi boshqardi. Ushbu davlatning hukmdori Nodishoh Afshor harbiy istilolar natijasida Eron, Afgʻoniston, Buxoro, Xiva, Hindistonni birlashtirgan davlat tuzdi. Lekin uning hukmronligi mamlakatda uzoq davom etmadi. 1747-yilda Nodirtepada boʻlgan qoʻzgʻolonda Nodirshoh

Afshor o'ldiriladi. U zo'rlik bilan birlashtirgan davlatlar parchalanib ketdi.

1747-yildan boshlab turli sulolalar o'rtasida Eronda yagona hukmronlik uchun qonli janglar boshlandi. Ana shu kurashlarda Kajarlar xonadoni g'olib chiqadi va davlatni o'z qo'liga oladi. Bu sulola Eronda o'z hukmronligini o'rnatadi. Sulolaning birinchi vakili Og'a – Muhammad bo'lib, bu hukmdor 1796-yilda to'la to'kis taxtning egasi bo'ldi. 1790-1925-yilgacha bo'lgan tarixiy davr kajarlar sulolasining hukmronlik davri hisoblanadi. Og'a Muhammad davrida Eronliklarning ahvoli og'ir bo'lgan. Mamlakatda hamma mehnat turlari qo'l mehnati orqali amalga oshirilgan. 1790-yildan boshlab Yevropa sanoat mahsulotlari Eronga kirib keladi. Natijada hunarmandlarning katta qismi xonavayron bo'ladi.

1797-yilda taxtni Fath Alishoh egallaydi. Fath Alishoh Eron davlatida 1797-1834-yillarda hukmronlik qilgan. U viloyatlarga farzandlari va nabiralarini noib qilib yuboravergan. Ma'lumotlarga qaraganda uning 126 tadan ortiq farzandlari bo'lgan. Hammalarini viloyatlarga noib qilgan. Shu davrda hokimiyatning markazlashuv jarayoni susayib ketdi. Ko'pgina viloyat hukmdorlari o'ziga turli xil qonunlar chiqarib mustaqil siyosat yuritdi. Hatto, noiblar tangalar ham chop etishgan. Kavkazorti Shimoliy Kavkaz Eron ta'sir doirasida edi, ular markaziy davlatga bo'ysunmaslik uchun keskin choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Qattiq tan jazosini belgiladi. Fath Alishoh davrida ko'zni o'yish jazosi eng keng tarqalgan va odatiy tus olgan jazo turlaridan biri edi. Forslar Kavkaz xalqlariga qarshi qirg'in-barot urushlar qilib turgan. 1795-yilda, ular Gruziya poytaxti Tbilisini bosib olib bir kunda 20 ming kishini qilichdan o'tkazgan, xalq boshiga og'ir kulfatlar solgan. Shuning uchun bu xalqlar o'zlariga homiy qidirganlar, bu albatta, Rossiya davlati edi.

Rossiya Kaspiy dengizi va Kavkaz masalasida Eron bilan o'zaro ziddiyatli bo'lgan. 1801-yil Gruziya Rossiyaga qo'shilganidan so'ng (Georgiy-XII Rossiyaga xat yozadi), Rossiya Kavkaz ortida platsdarmga ega bo'ladi va 1804-yilda bu yerda Ganja xonligini bosib oladi. Shundan so'ng Rossiya va Eron davlatlari o'rtasida munosabatlar har tomonlama yomonlashdi. Ikkala davlat o'rtasida urush boshlanadi. Eron Rossiyaning

raqibi bo'lgan Angliyadan yordam so'raydi. Angliya Eronga qurol-yaroqlar yubordi. Urush harakatlarining birinchi davrida Eron faoliyati yaxshilandi. G'alaba ular qo'lida bo'lgan edi. Chunki inglizlar Eronliklarga har tomonlama yordam beradi. XIX-asrning boshlarida Napoleonga qarshi 1805-yilda Rossiya-Angliya ittifoqi tuzildi. O'sha ittifoqdan so'ng Angliya Eron davlatiga yordam berishni to'xtatadi. Endilikda Eron Fransiya davlatiga murojaat qiladi. Napoleon Bonapart Eronga Kavkazni qaytarishni va'da qiladi va Fransuz harbiy maslahatchilarini Eronga yubordi. Fransiyaning yordami ham uzoqqa cho'zilmaydi. 1807-yilda Kontinental blokada iqtisodiy qamal siyosatini yuritib Fransiya Angliyani yenga olmaganidan Tilzit sulhi bilan Rossiya Frantsiya shartnomasini imzoladi. 1808-yildan boshlab Fransiya Eronga yordam berishni davom ettiradi. Iqtisodiy qamaldan Angliya emas balki o'sha qamalda ishtirok qilganlar zarar ko'rdi. Urush harakatlari 1813-yilning oktyabr oyigacha davom etdi. O'sha yili Guliston degan joyda shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga binoan Eron ruslarga katta tovon to'lashni o'z bo'yinlariga oladi.

Dog'iston va Shimoliy Ozarbayjon Rossiyaga o'tadi, bu hududlardan Eron voz kechadi. Rus savdogarlari Eronda erkin savdo qilish huquqlarini oladi. Rus savdogarlari Kaspiy dengizida erkin suzishi mumkin va Kaspiy dengizida Rossiya Flot tashkil qilish huquqini qo'lga kiritadi.

Guliston shartnomasi Eronga yomon ta'sir ko'rsatdi. Napoleon urushlaridan keyin, Rossiya va Angliya o'rtasida munosabatlar yanada keskinlashadi. 1914-yilda Eron va Angliyaning antirus shartnomasi imzolandi va nihoyat 1826-yilning yozida Eron alamini olish maqsadida Rossiyaga urush e'lon qildi. Bu davrda arman va ozarbayjonlar Eronni qo'llab-quvvatlashdi, chunki ular Rossiyaga ishonmas edi. 1828-yilning 10-fevralida urush harakatlari tugab, Turkmanchoy shartnomasi imzolandi. Shartnomaga binoan «Guliston» shartnomasining shartlariga qo'shimcha Sharqiy Armaniston Rossiyaga o'tdi. Rossiya savdogarlari Eronning hamma shaharlarida eng imtiyozli boj bilan savdo qilish huquqlarini qo'lga kiritdi. Uchinchidan, yengilgan Eron Rossiyaga

20 mln. oltin so'm miqdorida kontributsiya to'laydi. Eron shaharlarida Rossiya vakolatxonalari ochildi, Tehronda Rossiya elchixonasi ochiladi. Griboedov bosh elchi qilib Eronga yuborildi. Greboedovga Rossiya tashqi ishlar vazirligidan buyruq keladi. Kontributsiyani tezroq uyushtirishni talab qilgan Greboedov 1829-yilda Eronda o'ldirildi.

Shoh – Muhammad davrida (1834-1848 yillarda) Yevropa mahsuloti raqobatiga Eron dehqon, hunarmand mahsulotlari chidam bermadi, natijada hunarmandlar xonavayron bo'ldi. Yerni erkin sotish va sotib olish tashkil qilinishi bilan dehqonlar ham bir qancha yerlardan ajraldi. XIX-asr 40-yillarining oxiriga kelib dehqonlarning shaharga qochishi kuchaydi. Ijtimoiy kelishmovchiliklarning kuchayish va keskinlashuvi ommaviy chiqishlarda o'z aksini topdi. 1847-yil Isfahonda shaharlik kambag'allar o'rtasida noroziliklar paydo bo'la boshladi.

1848-1852-yillarda Eronda, «Bobiylar harakati» nomi ostida chiqishlar bo'lib o'tdi va qo'zg'olonni bobiylik diniy sektasi boshqardi. Ular Sherozda tug'ilgan Bobiy nomini olgan Said Ali Muhammadning davomchilari edilar. Bobiylik qo'zg'olonchilarning g'oyasi bo'lib qoldi. Bobiylik nafaqat Bobning o'zining, balki uning ishi davomchilari g'oyasi hamdir. Bobning o'quvchilari (shogirdlari) uning ishining ko'p qirrali tashkilotchilari bo'ldilar. Bobiylik oqimining ko'p g'oyalari boshqa diniy ilmlardan olingan. O'z fikrlarini bob «Bayon» kitobida ifoda etgan. Muallif o'z fikrlarida diniy urf-odatni tomonlarga unchalik ahamiyat bermagan. Bobiylik shialikdan keskin farq qilmagan. Asosiysi shuki, bularda sheyxlardagi kabi odamlar va 12-chi imom Mahdi o'rtasida ma'lum bir kishi borligi g'oyasi bo'lgan. Bu kishi Ollohning fikrlarini insonlar o'rtasida tarqatgan. Bobning ilk qarashlari shayxchilikda vujudga kelganligi haqida o'zi «Bayon» kitobida yozgan. Shayxchilik ta'limotining asoschisi Shayx Ahmad Axsai bo'lgan. U o'z ta'limotini XIX-asr boshlarida Karbaloda va Najafda yoygan. «Bayon» - da Bobiy yozishicha: unchaga 2 ta bob bo'lgan, biri shayx Ahmad Axsai, ikkinchisi uning davomchisi Said Qosim Rishtiy. Bobiy Said Qosim Rishtiyning shogirdi bo'lgan va uni har doim «hurmatli ustozim» deb tilga olgan. Birinchi davrda Bobiy sheyxlar urf-odatini davom ettirib odamlar orasida faqatgina yaxshilikni, mehr-

oqibatni targ'ib qilishni o'zining asosiy vazifasi deb bilgan. Bu davrda Bobiy faylasuf sifatida o'z ishlarini targ'ib qildi, uning fikricha dunyoni o'zgartirib emas, balki insonni dunyoga bo'lgan munosabatini o'zgartirish kerak edi. Bobiy insonlar orasida muqaddaslik ramzi sifatida paydo bo'ldi. 12-chi imom Mahdiy yaqinda yerga tushar emish, u adolat o'rnatadi, u bilan odamlar orasida vositachi bo'lgan bu kishi Ali Muhammad bo'lib, o'zini «bob» deb atagan, o'ziga ergashgan kishilarni esa «Bobiylar» deb atagan. U 17 yoshida kishilarning muqaddas qadam joyi bo'lgan Aljavr va Karbalo shaharlariga ziyoratga borgan. Zamonasining zo'r shayxlaridan ma'ruzalar tinglagan. Bob «Qur'on»ni tozalashga chaqiradi. 1844-yilda Ali Muhammad o'zini «bobiy» - deb e'lon qildi, 1847-yilda esa Mahdi degan nomni oldi. O'sha yilda «Bayon» ham yozildi. Lekin bu asar 1850-yil keng tarqaldi, ya'ni bobiylik qo'zg'oloni arafasida Bobiyning bu asari nafaqat savodsiz odamlarga, balki fors diniy atamalari bilan notanish bo'lgan odamlarga ham tushunarsiz edi. «Bu asarni o'qish uchun - deb yozgan Svetkov - kam bo'lsada falsafiy fikrlay olish kerak». U o'z maqsadini asta-sekinlik bilan izohlagan, ayrimlar uchun esa umuman tushunarsiz qolgan. Bobning qarashlari odamlarga faqatgina shogirdlari tomonidan izohlab berilgandan keyingina tushunarli bo'ldi. Ali Muhammad o'z g'oyalarida haqiqiy olamni targ'ib qilib, undan begonalar va bobiy bo'lmaganlarni haydash kerak degan. Bobiylar olamini Eronning 5 viloyatida Ozarbayjon, Mozandaron, Forsiy Eron, Fors va Xurosonda tashkil qilish ko'zlangan edi. Bob bu olamni tashqi ta'sirlardan ajratishi kerak edi. Bobiylarning ziyoratdan tashqari o'z davlat chegaralaridan chiqishi man etilgan. Mamlakat aholisining asosiy mashg'uloti savdo-sotiq bo'lishi kerak edi. Boshqa mashg'ulotlar ham mumkin bo'lgan. Lekin mantiqni, falsafani, grammatikani, huquqshunoslikni o'rganish man qilingan. qo'zg'olon ko'pgina shaharlarda o'z tasirini ko'rsatgan edi.

Bobiy g'oyalari asosida inson huquqlarini himoya qilish turadi. Uning g'oyalarni Eron savdogarlari va hunarmandlarining manfaatlarini aks ettirgan. Savdogarlar va hunarmandlar bu mamlakatda asosiy rol o'y-nashi kerak edi. Bobiy o'z mamlakatida mulkiy tengsizlikni man etma-

gan. U faqatgina bobiylarni qonun oldida teng deb aytgan. Lekin qarashlarida qonun antifeodal yo'nalishi nafaqat savdogarlar, balki boshqa ijtimoiy qatlamlarning manfaatini ham aks ettirgan. Ali Muhammad goyalari shu bilan birga, dinning antifeodal oqimlarga xos bo'lgan umumiy gumanistik oqimga ham ega bo'lgan. Tiklanayotgan davlatning asosiy prinsipi «Odamga yomonlik va g'arazlik» qilmaslik, faqat yaxshilik qilish. Bobiylar prinsiplari o'ziga Eron aholisining keng qatlamlarini jalb qildi va ommaviy xalq chiqishlarining g'oyaviy mazmuni bo'lib qoldi. Shunisi ma'lumki, Bobiy hech qaerda qurolli urush haqida gapirmagan. Qurolli to'qnashuvlar haqidagi gaplar uning shogirdlari tomonidan targ'ib qilindi. Xususan Muhammad Ali Barfurushiy tomonidan Eronda qo'zg'olonini uyushtiruvchi boshliqlari va ideologlari ham chiqqan. Bundan tashqari, bu qatlam Eron xalq ommasiga yaqinroq edi va ular bobiyning fikrlarini xalq tushunadigan tilda targ'ib qildilar.

Bobiy va bobiylar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy farq bor. Bobiy va bobiylar o'rtasida, avvalambor, savdo-sotiq burjuaziyasi manfaatini himoya qilgan. Bobiylar esa Eron hunarmandlari, dehqonlari ekspluatatsiya qilinuvchi xalq ommasining manfaatlarini himoya qilgan. Bobiy va bobiylar feodal ekspluatatsiyasi va chet el bosqinchilariga qarshi kurashda birlashdi. XIX-asrning 40-yillarida iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan Eron viloyatlari - Ozarbayjon, Mozandaron, Xuroson, Forsda hunarmandlar va kambag'allarning ommaviy chiqishlari bo'lib o'tadi. Bu chiqishlar yaxshi uyushtirilmaganligi sababli tezda shoh hukumati tomonidan bostirilgan. 1848-yil sentabrda Muhammad shoh vafot etdi. Bu davrda taxt vorisi shahzoda Nasriddin poytaxt chegarasidan tashqarida bo'lgan. U Ozarbayjon hukmdori edi. Bu orada bobiylar o'z g'oyalarini targ'ib qilishga urindilar. 1848-yil oktabrda Barfurushda ular 700 ga yaqin odam yig'ib qo'zg'olonga tayyorgarlik ishlarini olib borganlar. Shu davrda ham Xurosonda, Karbaloda, Isfaxonda va Sherozda mahalliy hukmdorlarga qarshi qo'zg'olonlar bo'ldi. Bobiylar 1848-1852-yillarda Shayx Tabriz, Zanzon, Yazd, Nayriz markazlari bo'lgan shaharlarda qo'zg'olonlar uyushtirganlar. Lekin, qo'zg'olonlar bostirildi, bobiylar oqimi xalq

orasida obro‘ga ega bo‘lmadi. Umuman olganda Eronning umumiy ahvoli XIX-asr boshlarida inqirozli holatda edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Kajarlar sulolasi hukmdorlarining ichki siyosatidagi asosiy yo‘nalishlari nimalarda namoyon bo‘lardi?
2. Eron-Rossiya urushlari va ularning oqibatlari haqida gapiring?
3. Eron-Turkiya, Eron-Angliya diplomatiyasidagi ziddiyatlar mohiyatini bayon qiling?
4. Bobiylar qarashlari nimani ifodalardi?
5. Bobiylik harakatini qanday baholaysiz?

XVII-XIX-ASRLARDA USMONIYLAR SALTANATI.

1- VA 2 -TANZIMAT

Reja:

1. Usmoniylar imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli, Selim III islohotlari.
2. Imperiyaning tashqi ahvoli. Napoleon Bonapartning Misr ekspeditsiyasi.
3. XIX-asrda imperiyaning inqirozi. Tanzimatning birinchi va ikkinchi bosqichida Turkiya.
4. Midxat konstitutsiyasi.

Tayanch atamalar:

Yanicharlar – turk sultonining piyoda qo‘shinlari.

Len – harbiylarga xizmati uchun in’om qilingan yer.

«Tishlarni charxlash» solig‘i – Usmoniylar imperiyasida soliq yig‘uvchilarni boqish uchun oziq-ovqat olish.

Misr ekspeditsiyasi – 1798-yilda Napoleonning Misrga harbiy yurishi.

Yangi usmoniylar – imperiyani isloh asosida rivojlantirish tarafdorlari.

Tiraniya – zulmga asoslangan boshqaruv.

Tanzimat – turkcha «tanzim» – islohot demakdir.

1 - Tanzimat – 1856-1870-yillardagi o‘tkazilgan islohot.

«Taqvim a vaqoe» – 1832-yil Istanbulda chiqqan gazeta.

Oliy huquq kengashi – Tanzimatni amalga oshirish uchun nazorat kengashi.

Usmoniylar imperiyasi dunyo siyosiy xaritasidagi uch qit’a hududidan hozirgi o‘nlab davlatlarni o‘z ichiga oladi. Imperiyaning markazi Kichik Osiyo yoki Onado‘li yarim oroli uning yerlari hozirgi Kavkazorti hududi, Yaqin va O‘rta Sharqdan Suriya va Falastin, Shimoliy Afrikadan Misr, Tunis, Jazoir, Marokashdan tashqari hududlar, hozirgi Arabiston yarim oroli, Yevropadan Bolqon yarim orolini o‘z ichiga olgan.

Yangi zamon boshlarida imperiyaning iqtisodiy ahvoli asosan agrar mamlakat ekanligi bilan tavsiflanadi. Yangi zamon boshlarida oʻrta asr xususiyatlarini saqlab qolgan Osiyodagi bu imperiyada yer egaligining quyidagi shakllari bor edi:

1. Bosib olingan yerlar. Usmoniy sultonlar hududlardagi eng yaxshi yerlarni davlat fondiga kiritgan.

2. Sulton yerlari.

3. Harbiy gornizonlarga tegishli yerlar.

4. Xususiy yerlar. Sulton va uning atrofida xizmat qiluvchi badavlat kishilarga tegishli boʻlgan yerlar.

Umumiy yerlardan olinadigan mahsulotning 3 foizi sultonga tegishli boʻlgan.

XVII-asrning oʻrtalarida imperiyaning iqtisodiy tanazzulga yuz tutib, yer egaligi sohasida bir qancha oʻzgarishlar sodir boʻldi.

Len yer egaligi Yevropadagi benifatsiy yer egaligini eslatardi. Timar yer egaligi inʼom qilingan yerlar boʻlib, avloddan-avlodga meros qola boshlagan.

Sultonning asosiy qoʻshini piyoda qoʻshinlar – «yanicharlar» boʻlib, ular 6-12 yoshli xristian bolalaridan musulmonchilikka oʻtkazib tuzilgan. Ularning oʻz yer uchastkalari yoʻq edi. Yanicharlar sultonni ruxsatisiz uylanmasdi. Yanicharlar savdo yoʻliga oʻtib, iqtisodi kuchli boʻlgandan soʻng, qoʻshin toʻplab saroyga hujum qiladilar. Ular sultonlarni ham almashtirib turardilar.

Sulton davlatda «Xudoning yerdagi soyasi» boʻlib, u hamma mansabdorlarni tayinlar edi. Juda katta apparatga asos solinib, u koʻp xarajatlarni talab etardi. Sulton va uning oilasiga 12 ming kishi xizmat qilar edi.

Sultonning soliq yigʻuvchilari mamlakat boʻylab oʻlpon yigʻganlar. Soliqchilarni 2-3 oy davomida qishloq jamoalari oʻz hisobidan boqardi. Bu esa «tishlarni charxlash soligʻi» deyilgan. Selim III (1789-1796) taxtga chiqqandan soʻng harbiy va madaniy sohalarda islohotlar oʻtkazgan edi. U turk harbiy floti uchun 23 ta linkor, zamonaviy harbiy kemalar tashkil qiladi. Rus shaklida toʻp qoʻydiradigan zavodlar ochadi. Dunyoviy maktablarni koʻpaytirdi, koʻplab kishilarni meditsina, harbiy

sohalar bo'yicha o'qishga yubordi. Biroq Selim III ning aristokratlar o'zboshimchaligiga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlari katta qarshiliklarga uchradi. Natijada islohot tarafdorlari bilan unga qarshi bo'lgan kuchlar orasida nifoq boshlandi. Natijada 1796-yil Selim–III o'ldirilib, uning o'rniga islohotni to'xtatgan Mustafo IV hokimiyat tepasiga keldi. Lekin islohotga xayrixohlar joylarda o'z noroziliklarini namoyish qildilar.

Mustafo Bayroqdor o'zining «rushuk do'stlari» nomli tashkilotini tuzadi. U Bolgariyadan, Istanbulga qarab yuradi, unga ko'p kishilar qo'shiladi. Mustafo IV Bayroqdor bosh vazir lavozimiga ko'tariladi. Bu davrda Turkiyaning tashqi ahvoli ham og'irlashdi. Ayniqsa, Kavkaz va Qrim masalasida Rossiya va Turkiya ziddiyatlari kuchayib ketdi. 1774-yil «Kuchuk kaynarja» shartnomasi bilan Turkiya Qrimga davodan vozkechdi. 1783-yilda o'jizlangan Qrimni Rossiya bosib oldi.

1806-1812-yillarda Rossiya-Turkiya urushlari bo'lib, Turkiya Shimoliy Kavkazdagi bir qator hududlaridan, Bessarabiyadan ajraldi. Imperiyaning boy koloniyasi Misr edi. Misr masalasida Fransiya va Angliya manfaatlari to'qnashdi. Birinchidan, Misr imperiyaning eng boy koloniyasi edi. Ikkinchidan, Misr savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgan edi. Uchinchidan esa, kelgusida Hindistonni bo'ysundirishda Misr baza rolini o'ynar edi.

Shuning uchun 1798-yil iyul oyida Napoleon Bonapart Misrga desant tushirgan. Misrda hokimiyat mamluklar qo'lida bo'lgan. Bir paytlar qul qilib olingan nasroniylarni Sulton Misrga yuborgandi. Napoleon mamluklar bilan to'qnashdi. Napoleon Fransiyaning Misrga ta'sir o'tkazishini ko'zlab, u biz bu yerga bosqinchilik uchun emas, biz musulmonlarni hurmat qilamiz, mamluklar zulmidan aziyat chekkan xalqqa yordam berish uchun keldik, deydi.

Napoleon Ali Bunobardi poshsho nomi bilan «Qur'on»ni o'rgana boshlagan, Juma kunlari namoz o'qigan.

Napoleon bilan bir davrda inglizlar ham bu yerga o'zining ekspeditsiyasini uyushtirdi. Napoleon armiyasi inglizlar bilan to'qnashadi. Shundan keyin Suriyaga ekspeditsiya uyushtirdi. Lekin bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz chiqdi. Sulton imperiyadagi xristian yoki nasroniylikka e'tiqod qiladigan aholini «to'da» deb atagan. Ular o'zi bilan har qanday

qurol olib yurishi mumkin bo'lmagan. Mamlakatda o'rta asr an'anachiligi asosida sanoatga to'sqinlik qiluvchi «sex reglamentatsiyasi» tartibi mavjud edi. Ko'pi bilan un ikki kishi ishlovchi hunarmandchilik ustaxonalari bo'lgan. 1730-yil sulton va uning tiraniyadan iborat siyosatiga qarshi norozilik harakati bo'lgan. Bu harakatga Patron Xalil boshchilik qilgan. Madaniyatda ham krizis chuqur bo'lib, mantiqsiz anglab bo'lmaydigan san'at asarlari yaratilgan.

1770-yillarda Usmoniylar imperiyasining chet ellarga qaramligi ortib borardi. Qrim urushidan so'ng imperiya chet davlatlardan qarzdor bo'lib qoldi. Chet el kolonistlari usmoniylar imperiyasidagi feodal ahvoldan foydalanib qolardilar.

Fransiya-Prussiya urushidan keyin Turkiyaning xalqaro ahvoli yanada og'irlashdi. Angliya va Fransiyaning usmoniylar imperiyasini egallash xohishi ortib borardi. Turkiya va Bolqon uchun kurashga Germaniya ham qo'shildi.

1770-yilda Rossiya Fransiyaning Qora dengizdagi hamma haq huquqlarini bekor qiladi va Qora dengizda o'zining jangovor flotini tashkil etadi. Bo'larning hammasi Turkiya uchun tezda katta xavf tug'dirardi.

Usmoniylar imperiyasining iqtisodi asosini qishloq xo'jaligi tashkil qilardi. Lekin qishloq xo'jaligi kundan-kunga tanazzulga yuz tutayotgan edi. Onato'lida sayohat qilgan bir sayohatchining aytishicha, Turkiyada dehqonchilikda plug ishlatilishini aytadi. O'sha davrda hosil ham juda past darajada yetishtirilar edi. Dehqonlar orasida shunday maqol bor edi: «Hosilning bir qismini sovuq uradi, bir qismi yo'qoladi, bir qismini qushlar cho'qiydi, agar Xudo xohlasa bir qismi o'zimizga qoladi» degan. Lekin o'sha qolgan bir qism hosil ham pomeschik va soliq yig'uvchilarga ketar edi.

Qishloq xo'jaligining inqirozi mamlakatda ocharchilik yillarini boshlanishiga olib keldi. 1773-1775-yillarda Kichik Osiyoning Shimoliy va Markaziy rayonlarida qattiq ocharchilik bo'lib o'tadi. Bu ocharchilikdan ba'zi qishloqlarda juda ko'plab odamlar halok bo'ladi.

Shaharlarda ham ahvol ancha og'ir edi. Mamlakatdagi feodal tartiblar kapitalizm uchun katta to'siq edi.

Sulton hukumati mamlakatdagi krizisdan chiqish yoʻlini izlardi. Sulton hukumati chet el bankirlaridan qarz ola boshladi. Birgina 1770-1774-yillar orasida chet eldan 3 mlrd frank miqdorida qarz olish toʻgʻrisida kelishuv imzolandi. Turkiyaning oʻsha davrda chet el mamlakatlaridan olgan qarzi 5, 3 mlrd frankni tashkil qilardi. Bu esa aholidan olinadigan soliqlarni yanada oshirdi.

Turkiya oʻzining oʻrta asrlardagi salohiyatini saqlab qolish uchun XIX-asrning ikkinchi bosqichida Tanzimlar oʻtkazdi. Sulton Mahmud II Rus-Turk urushidan soʻng (1828-1829-yillardan soʻng) mamlakatda hokimiyatni mustahkamlash uchun bir qancha islohotlar oʻtkazdi. U oʻzining siyosatida pomeschchiklar va bir qancha Onadoʻli feodallarini oʻziga qattiq boʻysunishiga majbur qildi. Sipoxiylarga kompensatsiya tarzida har yili nafaqa berilardi.

Viloyat hokimlari markaziy hokimiyat tomonidan tayinlanar va sultonga boʻysunar edilar. Istambulda harbiy meditsina bilimgohi ochildi, 1832-yildan Turk tilida «Taqvim va voqoi» degan gazeta chop etila boshlandi.

Mahmud II ning vafotidan soʻng, mamlakatda yangi reformalar oʻtkazildi. Bu davrga kelib Sulton aʼyonlari orasidan ilmiy ziyolilar ajralib chiqdi. Xalq noroziliklari ham oʻsib bordi. Yirik siyosiy arbob va diplomat Rashid poshsho davrida ham bir qator islohotlar boʻldi.

Yangi Sulton Abdulmajid va tashqi ishlar vaziri Rashid poshsho islohotlar dasturini ishlab chiqdilar. 1839-yil 3-noyabrda Sulton islohotlari joriy qilindi va yangi tanzimat eʼlon qilindi. Tanzimatning asosiy maqsadi imperiya ahvolini yaxshilash, iqtisodiy, siyosiy, harbiy jihatdan islohotlar qilib davlatning mavqeini tiklash edi.

Tanzimat qonunlarini joriy etish va ular ustidan nazorat oʻrnatish uchun «Oliy huquq kengashi» tashkil qilindi. Savdo sohasida, pul sohasida islohotlar oʻtkazildi. Oʻrta maktablar toʻgʻrisida islohotlar amalga oshirildi. Harbiy maktablar ochish toʻgʻrisida farmonlar qabul qilindi.

1839-yildan 1856-yilgacha davom etgan 1-tanzimat mamlakat hayotini oʻnglay olmadi. Turkiya nafaqat ichki, balki tashqi siyosatda ham inqirozga yuz tutdi.

Garchi 1853-1856-yillardagi Rossiya-Turkiya urushida Turkiya g'alabaga erishgan bo'lsa-da, bu imperiyaga obro' keltirmadi. Aksincha, Angliya vaFransiyaning ta'siri kuchaydi. Rus yozuvchisi Chernishevskiyning aytishicha, «Turkiya o'sha paytda ustiga odam mingan qirchang'i otga» o'xshardi.

Tanzimatning ikkinchi davri 1856-1870-yillarni o'z ichiga oladi. 1856-yil fevral oyida Parij Kongressining ochilish marosimida yangi islohotlar manifesti e'lon qilindi.

Manifest 1839-yildagi ediktdan farq qilib, ingliz – fransuz ta'siri ruhida yozilgan edi. Kongressda Usmoniylar imperiyasi xalqi va muhojirlari hayoti haqida gap boradi. 1856-yilgi manifest, 1839-yilgi musulmon va musulmon bo'lmaganlar tengligini tasdiqladi. G'arbiy Yevropa burjuaziyasi kapitalining Turkiyaga kiritilishi qonunan mustahkamlandi. Chet elliklar Turkiya hududida doimiy va ko'chmas mulkka ega bo'lish huduqini oldilar. Shunisi xarakterliki, Rashid poshsho 1856-yilgi tanzimat manifestini Turkiya uchun barbod qiluvchi deb bilardi. Manifestda shunday bandlar bor ediki, doimiy sistemasini bekor qilish, soliq tizimini o'zgartirish, yo'llar qurilishiga ta'sir o'tkazish va boshqa masalalarga e'tibor kuchaytirildi.

1858-yilda yer haqida qonun chiqdi. Bu qonun «yer masalasini to'g'ri yo'lga qo'yish» uchun qabul qilindi. Beriladigan yerning bir qismi davlat yoki vaqf yerlari edi. Bu yerlar ijaraga berilar edi. Bu ijaraga olingan yerlarni sotish, hadya qilish man etilgan edi. Yer haqidagi qonun ham dehqonlarning yerdan mahrum bo'lishini to'xtatib qololmadi.

XIX-asr 60-yillarida sex reglamentatsiyasi man etildi. Ushbu asrning 40-yillarida boshlangan boshlang'ich o'rta va oliy maktablar ochish yana davom etdi. Maktablarni nazorat qilish uchun maorif vazirligi tuzilgan edi.

XX-asr 60-yillarining o'rtalariga kelib boshlang'ich maktablarda 660 ming o'quvchi o'qirdi.

Harbiy sohada ham islohotlar qilindi.

Turkiya tarixidagi ikki tanzimat ham o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha olmay yuzaki xarakterga ega bo'lib, ko'plab Tanzimat oldiga qo'yilgan vazifalar faqat qog'ozdagina qolib ketdi. Yevropa hukumatlari

ham bu islohotlarga tinch qarab turmadi. Mamlakatda islohotlarning amalga oshmasligining sababi islohotga qarshi bo'lgan feodal guruhlarining goh yashirin, goh ochiq qarshiliklari hamdir. Tanzimat Turkiya mustaqilligini mustahkamlashga yordam berolmadi, Turkiyaning Yevropa mustamlakachiligiga qarshi harakatga chorlay olmadi. XIX-asrning o'rtalarida Usmoniylar imperiyasida chet el kapitaliga yo'l ochilib, mamlakat iqtisodiy qaramlikdan qutula olmadi.

Ko'plab pomeschchiklar, yirik yer egalari Turkiya feodallarining tanzimatga qarshi chiqishi islohotlarni amalga oshmay qolishiga olib keldi. Xullas, 1- va 2- tanzimat (1839-1856, 1856-1870), Turkiyaning qudratini tiklay olmadi. Aksincha, Usmoniylar imperiyasi tobora Yevropaga qaram bo'lib qoldi.

XIX-asrning 70-yillarida Usmoniylar imperiyasi inqirozga yuz tutdi. Butun imperiyada xalqning noroziligi avj ola boshladi.

Bu davrda muhojirlikda bo'lgan yangi usmoniylar o'zlarining g'oyalari bilan chiqdilar. Matbuotda va o'zlarining varaqalarida ular mamlakatda konstitutsiya qabul qilinishini talab qildilar va Turkiyada yangi reformalarni ilgari suradilar.

Ularning g'oyalariga Turkiyada xayrixoh bo'lgan bir qancha chinovnik va ofitserlar bor edi. Ular orasida «buyuk vazir» mansabida bo'lgan Midxat poshsho alohida o'rin egallardi.

Midxat poshsho va «yangi usmoniylar» turk liberal pomeschchiklari va yangi burjuaziyasining diqqatini o'zlariga jalb qildilar. Ular sulton absolyutizmiga qarshi kurashdilar. Lekin ular sulton zulmidan xalqning o'zi xolos bo'la olishini anglab yetmagan edilar. Midxat va uning tarafdorlari Angliyaga murojaat qildilar.

Sulton imperiyasidagi krizis badiiy adabiyot, san'at va madaniyatda ham o'z izlarini qoldirdi. Mantiqsiz anglab bo'lmaydigan san'at asarlari yaratildi.

1871-yil «buyuk vazir» lavozimiga Mahmud Nadim poshsho o'tirdi. U yangi usmoniylarga mamlakatga qaytish uchun amnistiya e'lon qildi. Mahmud Nadim yangi usmoniylar Turkiyada politsiya nazorati ostida xavfsizroq bo'ladi, deb o'ylardi. Lekin tez orada «yangi usmoniylar»

oʻzlarining gazeta va varaqalarida Sulton Abdul-Aziz (1861-1876) va Nadim poshshoning siyosatlarini qoralab chiqdilar.

1873-yilda Istambulda «Qahramonlik yoki oʻlim» nomli drama namoyish qilinadi. Bu dramada hukumatga qarshi voqealar bayon etiladi. Sultonning topshirigʻi bilan Namiq Kamol va uning tarafdorlari (yangi usmoniylar) turmaga tashlanadi.

1871-1873-yilda oʻnlab vazirlar almashtirildi. Keyin yana hokimiyatga Mahmud Nadim poshsho keladi.

1876-yil may oyida «yangi usmoniylar» faoliyati kuchayib, xalqning koʻpchiligi ular tomonga oʻta boshladi. Ularning maqsadi Abdul-Azizni hokimiyatdan chetlashtirib, oʻrniga boshqa sulton qoʻyish edi.

1876-yil 22-mayda shahar kambagʻallari musulmon maktabi aʼzolari, savdogarlar, jami 40 ming kishi Sulton saroyi atrofini oʻrab oldilar. Ular Nadim poshshoni vazir lavozimidan boʻshatishni talab qildilar. Qoʻrqib qolgan Sulton Nadim poshsho oʻrniga Mahmed Rashid poshshoni tayinlaydi, Midxat poshsho ham hokimiyatga keldi.

Lekin baribir xalqning noroziligi tugamadi. 1876-yil 30 mayda kechasi Abdul-Aziz hokimiyatdan chetlashtirildi. Ikki kundan keyin esa uning oʻzini oʻldirganligi toʻgʻrisida xabar tarqaldi. «Yangi usmoniylar» va Midxat poshsho yangi Sulton Murod V ning hokimiyatga kelishi bilan oʻzlarining konstitutsiyalarini joriy qila olishlariga ishonardilar. Lekin Murod V ning kuchli ruhiy kasal ekanligi, hatto eng oson davlat ishlarini ham bajara olmasligi aniq boʻldi. Feodallar Midxat poshsho va uning tarafdorlarini Murod V ning kasalligidan foydalanayapti, deb qarshi chiqishdi. Midxatning muxoliflari Murod V ning oʻrniga shaxzoda Abdul Hamidni Sulton qilishini yoqlab chiqdilar. Midxat poshsho yordamida Abdul Hamid taxt tepasiga keldi. Tezda Midxat vazir boʻlib, konstitutsiya dasturini ishlab chiqishga kirishdi.

Usmoniylar imperiyasi tobora zaiflasha borardi. Turkiyaga Serbiya va Chernogoriya urush boshladi. Rossiya bilan ham aloqalar tobora zaiflasha borardi.

Abdulhamid II Konstitutsiya loyihasini qabul qilishga rozi boʻldi. U xalq bilan hisoblashishga majbur edi. Konstitutsiya xalqaro konferensiyada qabul qilinadigan boʻldi.

1876-yil 23-dekabrda xalqaro konferensiya boshlanishi arfasida mushaklar otildi. Turk delegati turib shunday dedi: «Janoblar Turk sultoni Sizlarga konstitutsiya berdi. Bu Konstitutsiyada xalq haq-huquqlari va ozodligi belgilangan». 1877-yil konferensiya o‘z ishini tugalladi.

Midxatning Konstitutsiyasi Turkiyada Konstitutsion monarxiyani joriy qildi. Ikki palatali parlament joriy etildi. Senat a‘zolari sulton tomonidan bir umrga tayinlanar edi. Davlat tili turk tili, deb, davlat dini esa Islom dini, deb e‘lon qilindi. Konstitutsiyada sultonning haq-huquqlari saqlanib qolingani edi. Sulton xohlasa urush e‘lon qilar, xohlagan qonunlarini joriy etar, og‘ir jinoyatlarga jazo e‘lon qilar edi.

XIX-asr o‘rtalaridan boshlab, Turkiyaning chet davlatlardan qaramligi yanada orta boshladi. Ayniqsa, Angliya, Fransiya, Germaniya singari davlatlarga Turkiyaning iqtisodiy jihatdan qaramligi orta bordi. Turkiya Fransiya kapitalini o‘z hududiga kiritib, temiryo‘llar qurishga ruxsat berdi. Yevropa mamlakatlari kirib borgan sari Turkiyaning yarim mustamlakaga aylana boshlashi kuchaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII-asr oxirida nega Usmoniylar saltanati inqirozga uchradi?
2. Selim III qaysi sohalarida islohotlar o‘tkazdi va maqsadi nima edi?
3. Tanzimatning mohiyatini izohlang?
4. I va II- tanzimatni qiyosiy tahlil qiling va xulosa chiqaring?
5. Tanzimatlar nega Turkiyani kuchli davlatlar safiga kiritmadi?
6. Midxat poshsho Konstitutsiyasi haqida fikringiz qanday?

HINDISTONDA BOBURIYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI OSTIDA. ANGLIYANING MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

Reja:

1. Boburiylar imperiyasi davrida Hindistonning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tuzumi.
2. Boburiylar imperiyasining inqirozi. Angliya va Fransiyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosati.
3. Hindistonning Angliya tomonidan mustamlakaga aylantirilishi va uning oqibatlari.

Tayanch atamalar:

Ahli davlat, ahli saodat, ahli murod – Boburiylarning hukumatida boshqaruv idoralari.

Jagir – Musulmon vakillariga harbiy xizmat uchun berilgan (in'om etilgan) yer.

Skix – XVI-asrda Boburiylarga qarshi harakat nomi «shogird» degan ma'noni anglatadi.

Varna – tabaqa, Hindistonda asosan 4 tabaqa bo'lgan.

Kshatriya – jangchilar tabaqasi.

Sex reglamentatsiyasi – O'rta asrlarda sex ishlab chiqarishi bo'lib, sanoat rivojiga to'siq bo'lgan.

Shayboniylar bilan kurashlarda yengilgan temuriylardan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) markazi Qobul bo'lgan Afg'oniston davlatiga yurish qildi. 1504-1526-yillarda u Afg'onistonda hukumronlik qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1522-yili Qandahorni egallaydi, bu esa o'z davlati chegaralarini Hindiston tomonga kengaytirish imkonini tug'diradi. Shu maqsadda u Hindistonga vaqti-vaqti bilan hujum qilib, undagi tabiiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlarini o'rgana boradi. Nihoyat, 1526-yil aprel oyida Panipat (Dehli yaqini) da bo'lgan 5-jangda u 12 ming qo'shin bilan 100 mingga yaqin askar va 2 mingga yaqin harbiy

filga ega bo'lgan Hindiston podshosi Sulton Ibrohim Lo'diyning yengadi va Agra, Dehli, Loxur kabi shaharlarni egallaydi. Bu jangda 50 mingdan ortiq Ibrohim Lo'diyning odamlari va o'zi ham o'ladi. Bobur Hindistonni tashlab ketmadi va bu mamlakatda qolishga qaror qildi. U 1527-yilning mart oyida Sikri yonida bo'lgan jangda raqibi hind rojasi Rano Sangani ham yengib, butun Shimoliy Hindistonni bo'ysundiradi va Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini egallab Hindistondagi yangi imperiyaga asos soladi.

XVII-asr boshlarida Hindiston Boburiylar sulolasi hukmronligi ostida edi. Bu imperiyaga Zahiriddin Muhammad Bobur asos solib, Yevropada mazkur davlat «Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi» nomi bilan yuritilgan, chunki imperiyaning asoschisi Bobur ota tomonidan temuriylar avlodiga mansub, onasi Qutlug' Nigorxonim Chingiziylar avlodidan edi.

Hindistonda Boburiylar sulolasi 1526-1858-yillargacha hukmronlik qiladi. Bobur 1530-yil dekabr oyida vafot etadi. Undan 4 o'gil va 3 qiz farzand qoladi. Bobur farzandlariga bosib olgan mamlakatlarni vafotidan oldin bo'lib beradi. Hindistonni Humoyunga, Panjobni Mirzo Komronga, Qobul va Qandahorni Mirzo Askariyga, Badaxshonni Mirzo Hindolga taqsimlab beradi.

Humoyun o'z mulkini kengaytirish maqsadida 1534-yil Gujorat va Beharga yurish qildi. Humoyun afg'on sur qabilasining nufuzli yetakchilaridan Sherxon bilan Chausa va Kanaujda bo'lgan janglarda (1539-1540) mag'lubiyatga uchrab, dastlab Sind va Qandahorga, u yerdan esa Eronga shoh Tahmasp huzuriga qochdi. Shunday qilib Shimoliy Hindiston 1540-yildan 15-yil davomida, ya'ni 1555-yilgacha Sherxon va uning avlodlari tasarrufida qoldi. 1555-yil Humoyun chig'atoy, afg'on, eron, turkman va ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan katta qo'shin to'plab, Hindistonga yurish qildi. O'sha yilning iyun oyida Iskandarshoh Surni yengib, Dehlini egalladi.

Boburiylar hukmronligida Hindistonda davlat bir xil boshqaruvda edi. Hukumat tarkibi 3 qismdan iborat bo'lib:

1. Ahli davlat – bu harbiylarga tayangan. Saroy qorovuli, harbiy xizmatchilari kirgan.

2. Ahli saodat – yoki baxt ahillari – qozi, shayx, ulamo, shoirlar kirgan.

3. Ahli murod – saroyda xizmat qiladigan qo‘shiqchi, sozanda, mashshoqlar kirgan.

Davlatni idora qilish 4 ga bo‘lingan:

1. Olov – harbiy ishlarni boshqaradi.

2. Havo – davlatni – saroy ishlarini boshqaradigan kishilar.

3. Suv – hokimiyatni may, moddiy ne‘mat bilan ta‘minlaydigan idora.

4. Yer – yer ishlarini tartibga soladigan idora.

Boburiylar hukmronligi davrida barcha yerlarning egasi podshoh hisoblangan. Podshoh yerlari bilan birga yana yer egaligining keng tarqalgan shakli «jagir» bo‘lgan. Jagir – bu in‘om qilingan yerlar bo‘lib, harbiy xizmati uchun musulmon harbiylariga berilgan. Mamlakatda yana xususiy yer egaligi shakli ham mavjud edi.

Kelgindi kishilarga Hindistonda yer ijaraga berilib, hosilning 1/5 qismi, ba‘zi hollarda esa 1/7 qismigina ularga tegishli bo‘lgan. Sex reglamentatsiyasi, jamoat tartibi saqlanib qolingan. O‘rta asr an‘analari asosida xo‘jalik yuritilib, aholining soni taxminan 150 mln kishi edi.

Hindlarda aholining 2/3 qismi hindlar bo‘lib, ularning e‘tiqodlari alohida kitobda jamlangan emas. Ularning e‘tiqodlari asosan 4 ta vedada:

1. Rigveda.

2. Samoveda.

3. Yajurveda.

4. Atharvaveda.

2 ta eposda («Mahobhorat» va «Ramayana») marsiya, duo, qo‘shiqlar tarzida aks ettirilgan. Qishloqlardagi jamoalarda har bir dehqon alohida yer uchastkasidan foydalanardi, yaylovlar esa umumiy hisoblanardi. Dehqonlar birgalashib feodallar foydasiga mehnat qilishar, sug‘orish inshootlarini, quduqlar, kanallarni tozalashardi, ho‘kizlar yordamida ishlatiladigan charxpalaklar qurishardi.

Hindistonning butun aholisi kastalarga bo‘lingan edi. Bular braxman, kshatriya, vayshi, shudra va boshqalardir. Bir kastadan ikkinchi kastaga o‘tishning imkoni yo‘q edi. Turli kastalarning a‘zolari o‘rtasidagi

nikohlarga ruxsat berilmasdi. Kashshoklikka va inson sha'nini yerga uruvchi ishlarni bajarishga mahkum etilgan past kasta «moxovlar» kastasi bilan aloqa qilish tamomila ta'qiqlangan edi. Eski urf-odatlarga binoan, hatto «moxovlar»ning soyasiga tegib ketish ham boshqa kasta a'zolarini go'yo murdor qilar edi. Hindistonni kastalarga bo'linishini, ularning urf-odatlarini, yurish-turish qoidalarini muhimi mashg'ulotlarining turlarini muqaddaslashtirib qo'ygan. Insonning jamiyatdagi o'rni, uning kasbi kasta bilan va uning ota-onalari shug'ullanib kelgan kasblar bilan oldindan belgilab qo'yilgan. Feodal munosabatlarning hukmronligi saqlab qolinganligi, siyosiy tarqoqlik, ayrim knyazlarga tegishli qabila o'rtasidagi urushlar va diniy adovatlar – bularning barchasi Ovropa mustamlakachilari uchun Hindistonni mustamlakaga aylantirishda qulay vaziyat edi.

XVII-XVIII-asrlarda Hindistonda ichki savdo jonlana boshlandi. Hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida shaharlarning roli birmuncha oshdi.

Boburiylar sulolasining oxirgi hukmdorlari davrida imperiyaning zaiflashgani, inqirozga yo'z tutishi Yevropaliklarning Hindistonga kirib kelishi, o'zaro ichki nizolarga, ya'ni «mu'g'ullar davlatini» qulatish uchun ozodlik harakatlari va boshqa sabablar Boburiylar imperiyasining inqirozga yuz tutganligidan dalolat berardi.

Boburning imperiyasiga qarshi ozodlik harakatlaridan biri, bu tarixda «Skixlar» harakati nomi bilan kirib qolgan. Bu harakatning asoschisi Nanak hisoblanadi. Bu ozodlik harakatining asosiy maqsadi:

1. «Buyuk mo'g'ullar», ya'ni boburiylar davlatini qulatish.
2. Kastachilik tuzumini bekor qilish.
3. Hammaning tengligini joriy etish.
4. Yerlarni jamoalarga olib berish.

«Skix» so'zining ma'nosi «shogird» degani. Skixlar harakatining markazi Panjob va Laxor bo'lgan. Bu ozodlik harakati qatnashchilari boshqalardan farq qilish uchun 3 xil metall buyum olib yurganlar. Bular xanjar, braslet, greben. Ular yana uzunsoch va soqol qo'yganlar.

Yevropaliklarning Hindistonda paydo bo'lishi XV-asr oxiri va XVI-asr boshlariga to'g'ri keladi. Hindiston birinchi marta portugallar

tomonidan kashf etildi. Shundan keyin ko'pgina fransuzlar, inglizlar, portugallar, gollandlar kirib kela boshladilar. Bularning asosiy maqsadlari Hindistonni mustamlakaga aylantirishdan iborat edi. Boburiylardan bo'lgan Akbarshoh davrida (1556-1609), ya'ni 1600-yilda hind-ingliz shirkati tashkil topdi. Uning rahbarlari Akbarshoh bilan uchrashib, ba'zi savdo-sotiq imtiyozlarini olishgan. Undan tashqari Akbarshoh ingliz qiroli Jeyms I ning elchisi Tomas Runini o'z saroyida qabul qilgan. 1602-yilda inglizlar Hindistonda Ost-Indiya savdo kompaniyasini tuzishdi. Bu kompaniya Hindiston boyliklarini tashib ketuvchi savdo-harbiy tashkilotiga aylandi.

Jahongir zamoniga kelib (1609-1627), 1615-yili Tomas Runi Sultonning ishonchini qozonib, u inglizlardan savdo-sotiqda soliq olmaslikka erishgan. 1616-yili Suropat portini qal'a qilib, o'rab olishga ham ularga ruxsat berilgan. 1640-yil inglizlar Hindiston hududida Boburiylarning ruxsati bilan mustahkam shahar Kalkuttani barpo qildilar. XVI-asr boshlarida Hindistonga fransuzlar ham kirib keldi. Shu vaqtlarda fransuzlar bilan inglizlarning manfaatlari to'qnash keldi. Fransiya Angliyaning asosiy raqibi bo'lib qoldi. Ammo sanoat va harbiy jihatdan ustunlik Angliyaning galabasini yengillashtirdi. Garchi inglizlar fransuz mustamlakachilarini haydab chiqargan bo'lsalar-da, Hindiston sohillaridagi qal'alarigina Fransiya qo'lida qoldi. Bu fransuzlarning Hindistonga ancha vaqtgacha ta'sirini o'tkazardi. Shunday qilib, Angliya Hindistonga asta-sekinlik bilan kirib kela boshladi. Hindiston endilikda mustamlakaga aylanishi aniq bo'lib turardi. Angliya dastlab mustamlakachilik harakatini Bengaliyadan boshladi. Ots-Indiya kompaniyasining harbiy xizmatchisi Robert Klayv 1757-yil Bengaliyaga qarshi qo'shin tortadi. Robert Klayv qo'shinlariga qarshi 1757-yil Plessi yonida jang bo'ladi. Bu shiddatli jangda Robert Klayv g'alaba qozonadi, Bengaliya poytaxti Murishobodni egallaydi.

Inglizlar Hindistonning janubiga qarab 3 marta qo'shin tortadilar va Maysur urushlari bo'ladi, Inglizlar bu yerlarni ham egallaydilar. 1773-yil poytaxti Kallikut bo'lgan Hindiston gunural-gubernatorligi tuziladi. Hindistondagi birinchi general-gubernator qilib Karnouli tayinlangan edi.

Hindistonda Angliya Bengaliyani, Madras viloyatini, bulardan tashqari yirik knyazliklardan: Aud, Banoras, Karnatni o'ziga qaram qilib oladi. Fransuzlar Hindistonning Sharqiy sohillaridan butunlay siqib chiqariladi. Inglizlar Hindistonda o'zlarini yer egasi deb e'lon qildilar, dehqonlarni feodal soliq sistemasi yo'li bilan ekspluatatsiya qilishning Osiyoda an'ana bo'lib qolgan usullarini qabul etdilar va mislsiz shafqatsizlik bilan qo'llay boshladilar. Bevosita inglizlarning juda og'ir, vahshiyona soliqlar solishi tufayli yuz bergan 1770-yil ocharchilikda boy va aholisi ko'p Bengaliyaning 10 mln.dan ortiqroq xalqi qirilib ketdi. Hunarmandlar ham keng miqyosda ekspluatatsiya qilindi. XVIII-asrning 60-70-yillarida Ost-Indiya kompaniyasining tutgan siyosati shafqatsizligi jihatidan «dastlabki jamg'arilish» tarixining eng jirkanch sahifalaridan birini tashkil qildi. Bengaliyani bosib olgach, kompaniya uning xazinasini taladi va bengal feodallaridan juda katta kontributsiya oldi, keyinchalik esa Bengaliya aholisiga katta soliqlar soldi. Soliqlar otkup sistemasi yo'li bilan yig'ib olinardi, bu esa boshqa yig'imlar ustiga ustama bo'lib tushardi. Inglizlarning Hindistonda orttirilgan boyligini hind istilosi «qahramonlari»dan Robert Klayv, Uoreng Gastings kabilarning sanoqsiz mol dunyosidan ham bilish mumkin edi. Masalan: Klayv Hindistonni talash natijasida 37 mln. funt sterlingini o'zlash-tirganida namoyon bo'ladi.

Hindistonning butun iqtisodi inglizlar manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. XVII-asrning 2-yarmidan boshlab Hindistondan o'g'irlab olib kelingan xazinalar Angliyaning kapitalistik rivojlanishiga sarf etildi. Bu narsa Hindistonning rivojlanishiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. XVII-XVIII-asrlarda Sharq, Osiyo mamlakatlari hisobiga Yevropada yuz bergan «dastlabki jamg'arish» bu ishlab chiqarish kuchlarining vayron bo'lishi va feodal tushkunlikning tobora kuchayishiga sabab bo'ldi. Inglizlar hukmronlik qilgan davrda 12 mlrd. so'mlik qimmatbaho narsalar tashib ketilgan. Bu Hindistonning ancha vaqtgacha rivojlanishiga og'ir zarba bo'ldi.

Hindiston janubidagi kichik knyazliklarni bo'ysundirish XIX-asrning o'rtalariga qadar davom etdi. Hindiston Angliyaning xom ashyo bazasiga

va sanoat mahsulotlarini sotadigan bozoriga aylandi. Keyinchalik ingliz parlamenti a'zolaridan biri: «Agar inglizlar Hindistonda shu tartibda hukmronlik qilsalar bu yerda 100-yillardan keyin orongutanlar yashaydi», - deb aytgan edi. Inglizlar o'zlarining «Zamindorlik haqida qonun» (1793), «rayyatvari», «maxalvari» kabi tartiblari bilan qishloq xo'jaligi sohasiga ham hukmron bo'lib qoldilar.

Xullas, mamlakatda Angliyaning salkam 200-yillik mustamlakachilik tartibi o'rnatilib, hind xalqining taqdiri ajnabiylarga bog'liq bo'lib qoldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Boburiylar sulolasi davrida Hindistonning iqtisodiy ahvoli qanday bo'lgan?
2. Hindistonda Angliya va Fransiya raqobati sabablarini bayon qiling?
3. Nega Hindiston inglizlar asoratiga tushib qoldi?
4. Angliyaning Hindistondagi agrar siyosati mohiyatini tushuntiring?

XX-ASRNING BOSHLARIDA TURKIYA VA ERONDAGI INQILOBLAR

Reja:

1. XIX-asrning oxirgi choragida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol.
2. «Yosh Turklar» tashkilotining tuzilishi va faoliyati.
3. Yosh Turklar inqilobi, ular davrida ichki va tashqi siyosat.
4. XX-asrning boshlarida Eronning iqtisodiy-siyosiy ahvoli va inqilob sabablari.
5. 1905-1911-yillardagi Erondagi inqilobiy harakatlar va ularning oqibatlari.

Turkiya oʻzining oʻrta asrlardagi qudratini saqlab qolish uchun XX-asr 2 bosqichida tanzimlar oʻtkazdi.

1. Tanzimat Turkiya tarixida 1839-1856-yillarni oʻz ichiga oladi. Tanzimat boshida turgan Rashit posho mamlakat hayotini oʻnglay olmadi. Turkiya nafaqat ichki qolaversa, tashqi siyosatda ham inqirozga yuz tutdi. Garchi u 1853-1856-yillardagi Rossiya – Turkiya urushlarida gʻalabaga erishgan boʻlsa ham u turkiyaga obroʻ olib kelmadi. Aksincha, Angliya va Fransiya taʼsiri kuchaydi. Ruslarning demokratik yozuvchisi Chernoshevskiy yozganidek, «Turkiya ustiga odam mingan qirchangʻi otga oʻxshaydi».

2. Tanzimat: 1856-1870-yillarni oʻz ichiga oladi. Aslida bu tanzimat xorij davlatlar taʼsirida uyushtirilgan edi. 1876-yilda Turkiya taxtiga Abdulhamid II chiqadi, uning davrida Turkiya tarixida despotik-zulum ustunlariga asoslangan boshqaruv oʻrnatildi. Uning davrida bosh vazir Mitxat posho Konstitutsiya joriy qilmoqchi boʻladi. Konstitutsiya eʼlon qilindi. Turkiya tarixiga Mitxat posho islohatchi sifatida kirgan. Biroq Abdulhamid mamlakatdagi konstitutsion monarxiya tuzumini bekor qiladi. Abdulhamid hukmronligi yillarida (1876-1908) juda koʻp turklar mamlakatdan muhojirlikka ketishga majbur boʻladilar.

XIX-asrning oxirgi choragida turk muhojirligining markazi Fransiya boʻlgan, xorijga ketgan turklar matbaachilik ishini rivojlantirdi. Rasmiy

ma'lumotlarga ko'ra Turklarning xorijda 116 nomda gazetasi chiqqan. Ularning 95 tasi turk tilida, 3 tasi arab tilida, bir qismi fors tilida nashr qilingan edi.

Ayniqsa, 1859-yilda turk matbaachisi Ahmad Rizabiyning «Mesh-verat» (muhokama munozara), Shavkat Alibeyning «Istiklel» (mustaqillik) gazetasining obro'si baland edi. Ahmad Rizobeyning Sultonga oppozitsiyada turdi.

Ahmad Rizabey bilan poytaxt Istanbul shahridagi 5-medsina bilim yurti talabalari o'zaro ittifoq tuzdilar. Ularning ittifoqida yangi siyosiy uyushma «Ittihot va taraqqiy» vujudga keladi. Birlik va taraqqiyot 1894-yilda shu uyushma zaminida «yosh turklar» tashkiloti tuzildi. 1895-yilda «Usmon ishchi jamiyati» tashkil topdi, bu jamiyat bir yil yashadi. Abdulhamid II «yosh turklar»ga nisbatan qattiq choralar ko'rdi.

1897-yilda u yosh turklardan 13 kishini o'ldirdi, 68 kishini turmaga tashladi. Biroq mamlakatda yosh turklarning ta'siri kuchayadi. 1902-yilda Parijda yosh turklarning birinchi sezdi bo'ldi. Bu sezdda tashkilot faollaridan Abdulla Javdod «Turk vatandoshlarimga» – murojaatini o'qib eshittirgan. U bu murojaatda Abdulhamid rejimini ag'darish uchun birlikka da'vat etgan. Yosh turklar tarkibida alban, arman va arab vakillari bor edi. Yosh turklar tashkiloti XIX-asrning oxiriga qadar yagona bo'lsa-da, 1903-yildan boshlab ikkiga bo'linadi.

1. Sabohiddin tarafdorlari: ular Turkiya butun hayotini Yevropalash-tirishni taklif qildilar;

2. Ahmad Rizabey tarafdorlari: ular Turkizm Islomchilik bosqichida turish, texnik jihatidan Yevropalashsak bo'ladi deb hisoblaydilar va ikki guruh o'rtasida qattiq kurash boradi.

1907-yilda yosh turklar harakatida yangi davr boshlandi. Turk sultonining harbiylari xalqqa o'q otishdan bo'yin tovladi. Natijada eng strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar Qaysari, Sivach, Yerzurum, Kuniya kabilardan sulton qo'ygan hukmdorlar haydaldi. O'sha yili yosh turklar harakatining markazi Parijdan Salonikaga ko'chadi. Harbiylar ham yosh turklarga xayrixoh edilar. 1907-yilda kapitan Mustafo Kamol yosh turklarni himoya qilgan, u «Vatan» siyosiy tashkilotini tuzdi, bu davr

Turkiya uchun ancha murakkab kechdi. Yosh turklar hokimiyatga intilayotgan edi. Parijdagi kelishuvga muvofiq Abdulhamidga qarshi qo'zg'olon, u taxtga kelganligining 33-yillik bayramida, 1909-yil avgustda boshlanishi kerak edi. Ammo yosh turklar qo'zg'olonni erta boshladilar. Bunga Angliya va Rossiyaning "Revel shartnomasi" sabab bo'ladi. Makedoniya Turkiyaga qarardi, Avstro-Vengriya uni bosib olmoqchi bo'ldi, lekin Turkiya qarshi, eski hukumat bu masalada qat'iy chora ko'rmadi. Natijada Resna shahridagi kapitan Niyozboy Revel shartnomasiga qarshi kurash boshladi, bosh shtab mayyori Anvarbiy, padpolkovnik Salohiddinbiy, mayyor Hasan Tosun kabilar Makedoniyani himoya qildilar. 1908-yil 23-iyunda yosh turklar monastrida ultumatumni sultonga yubordilar. Unda:

1. 1876-yilgi konstitutsiyani tiklash.
2. Parlamentni joriy qilish talab etildi.

Sulton shartnomalarni bajardi, Parlamentni chaqirishga va'da berdi. 1908-yil 23-iyun yosh turklar tomonidan milliy bayram deb e'lon qilindi. Ular hokimiyatga kelgunga qadar xalqqa ko'p va'da bergandi, biroq ular «Birlik va bo'linmaslik» shiorini o'rta tashladi va Buyuk davlatchilik siyosatini yuritdi. Birinchi, ikkinchi Bolqon urushlarida Turkiyaning yengilishi yosh turklarni obro'sini tushirdi. Vaqtincha hokimiyatni 1912-yil iyul, 1913-yil yanvargacha «Ozodlik va birlik» partiyasi egalladi. 1913-yil yanvardan Anvar posho harbiy to'ntarish qilib, «Yosh turklar triumverati»ni tuzadi. Hokimiyat 3 ta yosh turklar vakillari qo'liga o'tadi.

1-Harbiy Ministr va bosh shtab boshlig'i Anvar poshsho.

2-Ichki ishlar Ministri «Ittihot va taraqqiy» partiyasi raisi Talat posho.

3-Flot Ministri, Istambul shahar harbiy General-gubernator Jamol poshsho. Ular 1913-yilda Turkiya sanoatini rag'batlash haqida qonun chiqardi, lekin natija bermaydi. Tashqi qarz 1890-1908-yillarda 45,3 mlrd lira bo'lsa, 1908-1914-yillarda 49,5 mlrd lira Turkiya Yevropadan qarz bo'ladi. XIX-asr oxirida Usmoniylar (Turkiya) imperiyasi Osiyo, Yevropa va Afrikada hali ham juda katta territoriyalarga ega edi, lekin bu

territoriyalarning ko'pchiligi sultonga rasmangina bo'ysunar edi. O'tmishda g'oyat qudratli bo'lgan bu davlat Angliya, Fransiya va Germaniyaning yarim mustamlakasiga aylanib qoldi.

Turkiyada, kapitalizm sekin rivojlanib bordi. Aholining asosiy ommasi bo'lgan dehqonlar feodal majburiyatlar sistemasi bilan kishanlab tashlangan edi. Imperiyaning hukmron doiralari boy bergan narsalarining o'rnini mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilishni kuchaytirish va o'zga din xalqlarini, ayniqsa, muntazam suratda yo'q qilib borilayotgan slavyanlar bilan armanlarni talash yo'li bilan to'ldirishga harakat qilar edilar. XIX-asr 90-yillarida bir necha yuz ming armanni o'ldirishni (pogrom) tashkil etganligi uchun Abdulhamid «Qonxo'r sulton» degan nom oldi. Bolqondagi har bir mag'lubiyatdan so'ng Usmoniylar imperiyasining krizisi chuqurlashib bordi. Xullas, XIX-asr oxirida taraqqiyparvar kuchlar «Ozodlik, tenglik, qardoshlik va adolatni» talab qila boshladilar. Ularning liderlarini «Yosh turklar» deb atadilar.

Yosh Turklar ofitserlarga tayanib 1908-yil iyulda Makedoniyada qo'zg'olon ko'tardilar. Ko'p o'tmay Istambulda hokimiyat amalda yosh Turklar komiteti qo'lga o'tib qoldi. Yosh Turklar o'z hokimiyatlarini mustahkamlash uchun imperialistik davlatlardan qarz olishga harakat qildilar, chet elliklarga kontsessiyalar tarqatdilar. Shunday qilib, yosh turklar inqilobi Usmoniylar imperiyasi tuzumining sinfiy mohiyatini o'zgartirmadi va mehnatkashlarning ahvolini yaxshilamadi.

XX-asr boshlarida Eronda inqilobiy vaziyat vujudga keldi. 1905-1907-yillarda Rossiyada yuz bergan birinchi revolyutsiya Erondagi voqealarga katta ta'sir ko'rsatdi. Bolsheviklar propaganda olib borgan Bokudagi neft konlaridan qaytib kelgan Eronlik ishchilar mamlakatdagi inqilobiy harakatga yordam berdilar.

1905-yil oxirida revolyutsiyani Tehrondagi va mamlakatning boshqa shaharlaridagi ommaviy xalq namoyishlari boshlab berdi. Bozorlarda, machitlarda, saroylar va elchixonalar oldida ruhoniylar liberal pomeshchiklar va savdogarlar rahbarligi ostida mehnatkashlar islohatlar o'tkazishni, konstitutsiya qabul qilishini, shoh hokimiyatini va chet ellik imtiyozlarini cheklab qo'yishini talab qildilar. Umumiy ish tashlashlar

o'tkazildi. Shoh qo'shinlari namoyishchilarga qarshi borishdan bosh tortdilar. 1906-yil avgustda konstitutsiya joriy etish va majlisga saylov o'tkazish haqida farmon chiqarishga majbur bo'ldi. Ruhoniylarning yuqori tabaqalari va liberal konstitutsiya joriy etilishi, majlisning chaqirilishi va uning pomeschiklar hamda savdogarlar talabini qondiradigan qonunlar qabul qilishi bilan inqilob tugadi deb, hisoblar edilar. Lekin o'rta va mayda savdogarlar, hunarmandlar, ishchilar, shuningdek, dehqonlar ham qanoatlanmagan edilar. Shu sababli ruhoniylarning quyi tabaqalari ishtirokida shoh ma'murlari va chet el kapitaliga qarshi chiqdilar va bu holat 1907-yilda kuchaydi. Xalq orasidan chiqqan ko'ngillilar, fidoyilar otryadlari tuzildi. Xalqning harakatidan xavfsirab qolgan liberallar bu harakatning rivojlanishiga xalaqit berar va shoh bilan kelishishga intilar edilar. Demokratik kuchlarga birlik yetishmas edi. Ularga rahbarlik qilishga qodir bo'lgan revolyutsion partiya yo'q edi. Kontrrevolyutsion kuchlar bundan foydalandilar. 1907-yilda Angliya bilan Rossiya Eronni ta'sir doiralariga bo'lish haqida kelishib oldilar. Janub va markaz Angliyaga, Shimoliy qism Rossiyaga berilishi kerak edi va qurolli intervensiya tayyorlay boshladilar. 1908-yilning iyulida ularning madadida kontrrevolyutsion to'ntarish qilindi. Tehronda harbiy holat joriy etdilar, konstitutsiyaning amal qilishini to'xtatib qo'yildi. Shohga xizmat qilgan qozoqlar brigadasi fidoyilarni tor-mor qildi, majlisni tarqatib yubordi. Uning ko'pgina deputatlari qamoqqa olindi va qatl etildi. Lekin mamlakatning Shimolida, Tabriz shahrida revolyutsion demokratlar rahbarligida qurolli qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilar Rossiya revolyutsionerlaridan madad oldilar va shoh qo'shinlariga qarshi dadil jang qildilar. Bu hol mamlakatda yangi revolyutsion yuksalishni keltirib chiqardi. 1909-yil iyulda fidoyilar Tehronni egalladilar. Shohni qulatdilar va konstitutsiyani tikladilar. Biroq hokimiyat liberallar qo'liga o'tib qoldi. Ular imperialistik davlatlardan madad olish, soliqlarini ko'paytirish, fidoyilarni qurolsizlantirish va revolyutsionerlarni ta'qib qilish yo'li bilan o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga intildilar. Ag'darib tashlangan shoh konstitutsion

hukumatga qarshi qurolli kurash tashkil etdi. Rossiya mamlakatning Shimoliy qismiga, Anglya esa, janubiy qismiga o‘z qo‘shinlarini kiritdi.

Inventarizachilar rag‘batlantirib turgan shoh tarafdorlari Tehronda 1911-yilning dekabrda yangi kontrrevolyutsion to‘ntarishni amalga oshirdilar. Interventsiyachilar yordamida shoh hokimiyati tiklandi. Shunday qilib, Erondagi antifeodal va antiimperialistik xalq revolyutsiyasini bo‘g‘ib tashlashga muvaffaq bo‘lindi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Yosh turklar» inqilobi sabablarini keltiring ?
2. «Yosh turklar» qanday tadbirlar qo‘lladilar.
3. XX-asrning boshlarida Eronning iqtisodiy-siyosiy ahvoli qanday edi?
4. 1905-1911-yil Erondagi inqilobiy harakatlar qanday oqibatlarga olib keldi?
5. Erondagi inqilob sabablari nimada edi ?

HINDISTONDA 1857-1859-YILLARDAGI SIPOHIYLAR QO‘ZG‘OLONI. XITOIDA TAYPIN-TYANGO DAVLATI VA SIYOSATI

Reja:

1. Hindistonda sipohiylar qo‘zg‘olonining boshlanishi sabablari va borishi.
2. Sipohiylar harakatining kuchayishi va oqibatlari.
3. Xitoyda taypinlar harakatining vujudga kelishi. Taypin-Tyango davlatining tashkil topishi.
4. Taypinlar olib borgan urushlar va uning oqibatlari.

Tayanch atamalar:

Sipohiylar – Hindistondagi ingliz qo‘shinlarida yollanib xizmat qiluvchi hind harbiylari.

Sipohiylar qo‘zg‘oloni – 1857-1859-yillarda Hindistonda ingliz mustamlakachilariga qarshi hind harbiylari va xalqning birgalikdagi qo‘zg‘oloni.

Taypinlar urushi – 1850-1864-yillarda Chin sulolasi va mustamlakachilarga qarshi Xitoy kambag‘al tabaqalari olib borgan urush.

Taypin – tyango – «xudoning rohat-farog‘at jamiyati» – Taypinlar tuzgan davlat.

XIX-asrning boshlariga qadar inglizlar shimoliy-sharqiy va Shimoliy-g‘arbiy Hindistonni to‘la bo‘ysundirdilar. Hindiston iqtisodiyotining Britaniya kapitalga muhtojligi osha bordi. Bu davrda Angliyadan Hindistonga kiritiladigan va Hindistondan olib chiqiladigan sanoat mahsulotlari bir-biri bilan tenglasha olmas edi. Hindiston kundan-kunga xomashyo manbaiga aylanib bordi. Shu bilan birga, dunyo fabrikasiga aylangan Angliyada Hindiston xom ashyosiga zaruriyat oshib bordi. Angliya hukumati Hindistondan tayyor mahsulot olib chiqishni va ishlab chiqarish unumdorligini oshirish uchun ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rdi.

XIX-asrning 50-yillariga kelib, uzoq davr mobaynida Hindiston taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan kelishmovchiliklar eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Hindistonda Britan hukmronligi o'rnatilishi xalqni kambag'allashtirib, xalq hayotini og'irlashtirdi. Xalq noroziligi kun sayin oshib bordi. Mamlakatda istiqomat qiladigan hindlar va musulmonlarni majburan xristianlik diniga kiritish xavfi paydo bo'la boshladi. Bu xabarning tarqalishiga xristian missionerlarining keng faoliyati sabab bo'ldi. Shuningdek, feodallarning ham noroziligi oshib bordi. Bunga sabab, Britan agrar soliq siyosati va Maratx knyazi Dalxuzining amalga oshirgan islohotlari edi.

XIX-asrning 2-yarmiga kelib, Hindiston tobora inglizlarning tayyor sanoat mahsulotlarini sotadigan bozorga hamda xomashyo bazasiga aylandi. Inglizlar bu yerda o'zlarining ta'sirlarini o'tkazish uchun bir qator oliy o'quv yurtlariga ham asos soldilar. Ayniqsa, Bombeyda, Kalkutta va Madrasda inglizcha ta'lim beradigan maktablar ochildi. Maqsad inglizparastlarni ko'paytirish edi. Inglizlar bu yerda o'z hokimiyatlarini saqlash uchun hind erkaklaridan qo'shin yolladilar. Yollangan mahalliy xalq vakillari – sipohiylar deb aytiladi. Maxsus sipohiy garnizonlari vujudga keltirildi, 3 ta katta garnizon bor edi, ular Bombey, Madras va Bengaliya harbiy garnizonlaridir. Ular o'zlarining kuchlari, jangovarliklari jihatidan bir necha qismlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng zo'ri va ko'p sonlisi Bengaliya otryadi edi. Bengal otryadi sipohiylarining ko'pi rajput va braxman kastalaridan edi. Ular jami 128 ming kishini tashkil etgan. Sipohiylarni jang qilish va qurollarning barcha turlari bilan inglizlar tanishtirgan. Ayniqsa, ular artileriyadan mo'ljalga o'q uzishni o'zlarining ingliz ustalaridan puxta o'zlashtirganlar.

Sipohiylar har 3-yilda shartnoma asosida olinardi. Ularga oyiga 70 rupiya to'langan. Ularga sud ishlaridan foydalanishga ham imkoniyat berildi. Ularning oilalaridan olinadigan soliq miqdori biroz kamaytirildi. Lekin armiyadagi yuqori lavozimlar inglizlar tomonidan egallangan edi. Sipohiylar esa askar yoki zobit bo'lishi mumkin edi, xolos. Sipohiylar orasida nasliy saralanish hali o'z kuchini yo'qotmagan edi. Bu esa inglizlarning ular ustidan hukmron bo'lishiga imkon bergan. Chunki

ingliz oddiy askarlari ham xizmatkor yollash huquqiga ega bo'lgan. Urushlar davrida ularga qul berilgan. Ular askar va zobitlarning yuklarini ko'tarish, kiyim-kechaklarini saranjom qilish uchun xizmat qilardi. Inglizlar tomonidan Panjob ishg'ol qilingach, inglizlarning sipohiylar bilan munosabatlari ko'zga tashlandi. Ular sipohiylar bilan tuzilgan shartnomalarini buzib, ularga to'lanadigan 70 rupiya bekor qilindi. Sipohiylar polklarini Afg'oniston, Birma, Eron, Xitoy hududlariga urushga yubora boshladilar. Bundan g'azablangan sipohiylarning noroziliklari ommaviy tus oldi. 1857-yilgi ularga berilgan Yangi o'q-dorilar esa ularning sabr-kosalarini to'ldirdi. Chunki bu patronlar, o'q-dorilar cho'chqa yog'i bilan yog'langan bo'lib, ularni ishlatishdan oldin o'sha yog'langan ustki qavatini tish bilan qo'porib tashlash kerak edi. Inglizlarning sipohiylarga nisbatan qilgan bunday yovuz ishlari go'yo ularning musulmonchilik yoki hind e'tiqodlarini sinash uchun atayin qilingandek edi. Ular bu ishdan bosh tortdilar va inglizlarga qarshi harakatlarning dastlabkisi 1857-yil fevralda boshlandi. 1857-yil martda Kalkutta yaqinidagi Barakpurda namoyish vaqtida sipohiylar polkidan Mangal Bandi turib, birin-ketin 3 ingliz ofitserini otib tashlaydi. So'ngra o'z tarafdorlarini «haqiqat uchun o'lamiz!» deb kurashga chorladi. Lekin sipohiylar hali yaxshi uyushmagan edi. Shu bois Mangal Bandi yarador holda inglizlarga asir tushib, jazolandi. 1857-yil mayda Dehlida qo'shni Mirut shahrida sipohiylarning 3 ta polki ko'tarildi, 11 mayda sipohiylar ingliz ofitserlarini kaltaklab, ularning uy - joylariga o't qo'yidilar, so'ng tunda Dehliga tomon harakat qildilar. Ularning bu yerga kelganligi yashirin signal orqali xabar qilinadi, bundan xabar topgan ayrim inglizlarning ofitserlari qochishga ulguridilar. Qolganlari esa sipohiylar tomonidan o'ldirilib, «Ost-Indiya» kompaniyasiga qarashli barcha muassasalarga o't qo'yildi. Ingliz boshliqlarining uylari vayron etildi. Bu harakatda hind hunarmand va sipohiylari hindlar va musulmonlar birgalashib harakat qildilar. Qo'zg'olonga Ahmadshoh, Baxtxon singari kishilar boshchilik qildi. Ularning shiori: «Inson xudoga tegishli, mamlakat shohga tegishli, hokimiyat harbiylarga tegishli!» Mamlakatda qo'zg'olonchilar kengashi tuzilib, 10 kishi a'zo bo'lib kirdi. Dehlida

Mo'g'ullar sulolasining vakili Bahodirshoh II ni qo'zg'olonga rahbarlik qilish uchun chaqiradilar. Bahodirshoh II bu taklifga majburan rozi bo'ladi. U nomigagina qo'zg'olon rahbari bo'ldi, lekin hokimiyatni Baxtxon boshqarib turdi. Dehli ishg'ol qilingach, birinchi darajali siyosiy va harbiy markazga aylandi. Hindistonning markaziy qismi – Jamna va Gangada bu harakatni qo'llab-quvvatlovchi o'choqlar vujudga keldi. Kanpur viloyatida bu qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rishda oxirgi Maratxlar peshvosi Nana sohibning asrab olgan o'g'li muhim rol o'ynadi. Chunki Nana sohib sipohiylarning Kanpurdagi polki bilan yashirin aloqada edi. Keyinchalik u qo'zg'olon rahbarlaridan biriga aylandi. 1857-yil 4-iyunda Kanpurdagi sipohiylar 2 ta polk bo'lib harakatlarini boshladilar. Ular xazina, qurol-aslaha omborlari va qamoqxonalarga hujum qilib, qamoqdagilarni ozod qildilar hamda ularga qurol berish uchun mamlakatga boshqa polk delegatlari yetib keldi. Qisqa vaqt ichida sipohiylar Jxansi knyazligida ham bo'ldilar.

Sipohiylarning qolgan otryadlari Dehliga yordamga ketdi. Qo'zg'olonning muhim o'chog'i Aud bo'lib, u yerdagi harakat tashkilotchilaridan biri mayda feodal Ahmadshoh edi. U inglizlar tomonidan tutib, qamoqqa tashlangan edi. Qo'zg'olonchilar uni ozod qildilar.

Bu harakat Hindiston aholisining ingliz mustamlakachilariga qarshi buyuk ozodlik kurashi bo'lib, bu kurashda sipohiylar harbiy yadro vazifasini o'tadilar. Bu harakat ishtirokchilari bo'lgan keng xalq ommasi maqsadining asosiy negizini faqat mustamlakachilarni mamlakatdan quvish emas, balki mahalliy feodallarning jabr-zulmidan batamom qutulish tashkil etardi. Lekin dehqon va hunarmandlarning otryadi yaxshi uyushmaganligi, harakatlardagi tashabbuskorlikning yo'qligi ko'zga tashlandi. Ya'ni bu harakat Hindiston janubida o'z homiylarini topmadi. Mamlakatning Shimoliy-g'arbida, Panjobda sipohiylarning alohida, ajratilgan otryadlari harakat boshladi. Lekin ular mahalliy feodallarning yordami bilan inglizlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchradi. Bu yo'lda mustamlakachilarga skixlar va musulmonlar, skixlar va boburiylar o'rtasidagi kelishmovchiliklar qo'l keldi. Mahalliy feodallarning

ko'pchiligi inglizlar tomonidan turib harakat qilgani mustamlakachilar ahvolini biroz yengillashtirdi.

1857-1859-yillardagi bu qo'zg'olonning yakunlanishi shuni ko'rsatdiki, bu vaqtda hali Hindistonda kelgindilarga qarshi kurashish uchun yagona, umumiy kuch yetishmas edi. Chunki feodallarning ko'pi inglizlar tomonidan turib harakat qilardi. Bu harakatda dehqonlar va hunarmandlar tashabbuskorlikni o'z qo'llariga ololmadilar.

Bahodirshoh Birmaga surgun qilindi. Uning nevara, o'g'illarini ingliz ofitseri Xok otib tashlaydi. Shuningdek, sipohiylar va dehqonlar otryadi tarqoq va uyushmagan edi. Garchand mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, 1857-1859-yillardagi qo'zg'olon hind xalqi tarixida muhim o'rin egalladi. Bu qo'zg'olon o'zidan keyingi qo'zg'olonlarga turtki berdi. Qo'zg'olon dan keyin Hindistonda ingliz harbiy garnizonlari kuchayib ketdi.

XVIII-asrning ikkinchi yarmida Angliya Hindistonni bo'ysundirganidan so'ng Uzoq Sharq regionida savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgan Xitoy ham bo'ysundirishga harakat qildi. Xitoy Angliya uchun juda katta xomashyo bazasi bo'lishi mumkin edi. Hokimiyatni boshqarayotgan Tsin (1644-1911) sulolasi davrida mamlakatda feodal ekspluatatsiya milliy zulm bilan qo'shib ketdi. Tsinimperiyasi bosqinchilik siyosatini olib borib, 1636-yil ichki Mo'g'uliston, 1757-yil Jung'oriya xonligi, 1760-yil Sharqiy Turkiston, XVIII-asr oxirida Tibetni bosib olish hisobiga o'z imperiyasi hududini yangi chegaralar bilan boyitdi. Bu esa Xitoy xalqining ahvolini yanada og'irlashtirdi. XIX-asr Xitoy feodal iqtisodining asosini ilgarigidek aholining 90% ini band qilgan qishloq xo'jaligi tashkil qilardi. Dehqonlar faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib qolmay, balki o'zlariga zarur hunarmandchilik buyumlarini ham yasardilar. Ular yetishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pi pomeschchik va feodallarga yerlaridan foydalanganliklari uchun ijara to'loviga, yana oz miqdori ruhoniylarga tegardi. XVIII-asr oxiridan boshlab inglizlar Bengaliya qora-dorisini kontrabanda yo'li bilan Xitoyga kiritib boshladi. Bengaliya qoradorisi inglizlarning mustamlakalardan oladigan daromadining 7 dan 1 % ini tashkil qilgan. Xitoyda qoradoriga talab kuchli bo'lgan. Zamondosh yilnomachilarning fikricha,

XVIII-asr oxiri XIX-asrning boshlarida Xitoyning oddiy kishisidan tortib, hatto imperatorigacha nasha tortish uchun yonida trubka olib yurardi. Odamlar qoradoriga pulni ayamagan. Xitoyda 2 xil pul mavjud edi. Pul birligi – lyan bo‘lgan, kumush va mis lyan. Kumush lyan mis lyanga nisbatan 4.7 marta past qadrga ega bo‘lgan. Deqqolnlar mis lyan bilan soliq to‘laydi. Qoradori esa kumush lyan bilan sotiladi. XVIII-asr oxirida 2 ming yashik qoradori kiritilgan bo‘lsa, 1824-yilda 12 ming, 1837-yilda 39 ming yashik, 1840-yilda 40 ming yashik qoradori Xitoyga kiritilgan. Bunga qarshi imperator saroyida 2 ta guruh paydo bo‘lgan.

1. Tsi - Shan tarafdorlari.

2. Lin Tszi Chen tarafdorlari.

1836-yilda imperator Dagan maxsus edikt chiqargan. Unga binoan qoradori kiritilishi taqiqlab qo‘yilgan. 1840-yilning iyunidan 1842-yil avgustiga qadar Xitoy ingliz harbiy to‘qnashuvi bo‘lgan. Bu tarixga «Birinchi qoradori urushi» nomi bilan kiradi. 1843-1844-yillarda ikkinchi qoradori urushi ham bo‘lib o‘tdi. Biroq u hech qanday siyosiy ahamiyatga ega emas. 1850-yilda bo‘lgan qo‘zg‘olon eng yirik qo‘zg‘olon bo‘lib, u tarixga «Taypinlar qo‘zg‘oloni» nomi bilan kirgan. Bu harakatning boshliqi Xun – Syu – Tsyuan edi. U 1814-yilda Guanchjouda dehqon oilasida tug‘ilgan bo‘lib, ota-onasi uni 7 yoshidan boshlab o‘sha yerdagi mahalliy maktabga berishadi. 2 yildan keyin uni o‘zlarining qishloqdagi maktabga o‘qituvchilik qilishga chaqiradilar. 1843-yil u o‘qituvchilik qilib yurgan chog‘ida bir qancha qadimgi Xitoy mualliflarining asarlari bilan tanishadi. 1837-yil u ilmiy darajaga ega bo‘lish uchun imtihon topshiradi. Biroq imtihonlardan o‘ta olmaydi. U o‘zini Iisus Xristosning kichik ukasi deb e‘lon qiladi. U 3 ta diniy falsafiy gimnlar yaratadi:

1. «Dunyoni bilish haqida gimn».

2. «Dunyoning uyg‘onishi haqida gimn».

3. «Dunyoni saqlab qolish haqida gimn».

Uning g‘oyalari negizida tenglik yotadi. Avvalambor, jamiyat a‘zolarining tengligi, ijtimoiy tenglik – xotin va erkaklarning tengligini tushuniladi.

U istaydiki, odamlar do'stona yashasin, kambag'al va boylar bo'lmasin, odamlarda oliy axloq bo'lsin, yigitlar va qizlar hayotda bir-birini uyaltirmasin, hammaning bolasi jamoa maktabida o'qisin. Bu g'oyalarni «dunyoni saqlash gimni»da yozgan. 1850-yil iyulda Xun - Syu - Tsyuan jamiyatning butun a'zolarini to'plab, ularga barcha uy-joy va mol-mulklarini sotishni va butun oilalari bilan otryadlarga birlashishini, ularga butun jamiyat omborlari hisobidan kiyim va yegulik berilishini aytdi. Jamiyat a'zolari bilan birga ularga 10 mingdan ortiq boshqa provinsiyadagilar ham kelib qo'shildi. 1850-yil ular hokimiyat armiyasi bilan bo'lib o'tgan qattiq janglardan so'ng g'alabaga erishdilar. 1851-yil 11-yanvarda Xun - Syu - Tsyuanning tug'ilgan kunida Nankindagi Tsainbtyan qishlog'i egallandi va u yerda Taypinlar davlatiga asos solinadi. Taypin - «rohat-farog'at davlati» - degani. Taypin - tyango - xudoning rohat-farog'at davlati degan ma'noni anglatadi. Xun - Syu - Tsyuan bu davlatning imperatori bo'ladi. Xun - Syu - Tsyuan tarafdorlari ko'paydi. Ularga Vey - Chan - Xay, Shi - Da - Kay, Yan - Syu - Tsin, va boshqalar kiradi. Bu harakatga qo'shilganlar o'zlarini «taypinlar» - deb ataydi.

Taypinlar soni 100 ming kishiga yetadi. Ular kuchli armiya tuzadi. Ular Markaziy Xitoy va bir qator janubiy viloyatlarini egalladi. Armiyaning ichki tuzilishi «byoshlik» bo'linmalardan iborat bo'lib, shu bo'linmalardan 4 tasiga 1 ta komandir bor edi. Har bir boshliqning alohida «kuchli», «botir» kabi nomlari bo'lgan. 5 ta rota polk bo'lgan. Armiya diviziya va korpuslarga bo'lingan. Armiyada qattiq tartib-intizom o'rnatilgan. Bundan tashqari, harbiy qismlarni barabanchilar, trubachilar, musiqachilar kuzatib borganlar. Armiya qattiq harbiy tartib asosida qurilgan. Ular jang qilishda qadimgi Xitoy sarkardalarining usullarini qo'llaganlar. Ularning o'zlarining harbiy ustavlari bo'lgan. Taypinlar o'z harakatlari davomida pomeschiklarning uylarini yondirdilar, ijara shartnomalarini yondirib tashlaganlar, pomeschiklar va chinovniklarni o'ldirib haydab yuborganlar. Ular boy zodagonlar uylariga kirib, ularning qimmatbaho jihozlarini yoqib yubordilar. 1853-yil fevralida taypinlarning

mingga yaqin kemasi Yantszi tomonga harakat qiladi. Taypinlar harakatining 2 bosqichi bor:

1. Muvaffaqiyatli (gʻoliblik) davri. 1850-1856-yillarni oʻz ichiga oladi.

1856-yildan boshlab imperator Angliyadan yordam olib taypinlarga qarshi urush boshlaydi. Taypinlar lagerida qarama-qarshilik paydo boʻladi va taypinlar davlati 15-yil yashadi. 1850-yildan 1864-yil oraligʻida Taypinlarning qilgan ishlari, jamoa maktablari tashkil qilib, bolalarni kiyintirish, boqish jamoa maktabida amalga oshirilgan. Ular odamlarni baravar qilishga behuda uringan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hindistonda sipohiyalar qoʻzgʻolonining boshlanishi sabablari nimada?

2. Sipohiyalar harakatining oqibatlarini ayting?

3. Xitoyda taypinlar harakati qanday vujudga keldi?

4. Taypinlar olib borgan urushlarning oqibati nima boʻldi?

XITOIDA XALQ HARAKATLARI. IXETUANLAR URUSHI. SINXAY INQILOBI VA OQIBATLARI

Reja:

1. Xitoyda xalq harakati
2. Ixetuanlar harakati va mohiyati
3. Sinxay inqilobining sabablari va maqsadi.
4. Sinxay inqilobi va uning natijalari

Tayanch atamalar:

«**100 kunlik islohot**» – Xitoyda 1898-1899-yillardagi islohotchilik davri.

Ixetsyuan – tinchlik va adolat uchun ko‘tarilgan «qo‘l» tashkiloti.

Ixetuanlar – «tinchlik va adolatni himoya qiluvchi otryadlar» (mustamlakalarga qarshi haratilgan).

«**Oq nilufar**» – Xitoyda chin sulolasi va mustamlakachilarga qarshi tuzilgan yashirin jamiyat.

Dadao – «Katta qilich» – Ixetuanlarning maxfiy boshqaruv markazi.

Datun - Shu – «Buyuk birlik kitobi». Unda Xitoy farovonligi haqida utopik (xayoliy)fikrlar jamlangan.

Sin‘xay – Xitoyda oktyabr - noyabr oylarining atalishi.

Sin‘xay inqilobi – 1911-yilning kuzida Xitoyda ro‘y bergan 300 yil hukmronlik qilgan Chin sulolasini ag‘dargan inqilob.

Guanchjou hukumati – 1912-yil 1-yanvardan 1-aprelgacha mavjud bo‘lgan, Sun – Yat – Sen boshqargan vaqtli Xitoy hukumati.

Provinsiya – Xitoydagi majburiy bo‘linish bo‘lib, viloyatga to‘g‘ri keladi.

Xitoyda olib borilgan agressiyalar, istilochilik harakatlari inqilob va qo‘zg‘olonlar boshlanishga sabab bo‘ldi. 1898-yil Shanxay aholisi fransuz savdogarlaridan norozi bo‘lib chiqdilar. Fransuzlar ushbu shaharning asosiy qismlarini egallab bormoqda edilar. O‘sha paytda

Xitoyning barcha rayonlarida missionerlik tugatilmagan edi. 1898-yil aprelida Guansi hududlarida aholining shenshi qatlami fransuz missionerlarini siqib chiqardilar. 1898-yil may oyida Shanxay shahrining aholisi yapon elchixonalarini, ingliz missionerlari va savdogarlarining turar binolarini buzib, ularni shahardan haydab chiqaradilar. Eng yirik harakat kelgindilarga nisbatan martda bo‘lib o‘tdi. Aholi 30 ta uezdlarda harakat olib borishib, ularning soni 10 ming kishi edi. Siguanda harakat olib borganlar: dehqonlar, qog‘oz korxonasi ishchilari va shenshi qatamlari. Qo‘zg‘olonchilarning maqsadi, kelgindilarni shahardan quvish edi. Qo‘zg‘olon harakatchilari xristian cherkovlarini buzadilar, oqibatda 20 ta missioner cherkovlari yo‘qotildi, 4 ming sonli Xitoy katoliklariga asosiy zarba berildi. Missionerlarga 1186 ming shan miqdorida kompensatsiya berildi, bu harakatlar natijasi 1898-yil inglizlarda norozilik tug‘dirdi. Ular polisiya, harbiy qismlarni o‘z missionerlarini himoya qilish maqsadida Xitoy hukumati yerlariga kiritadi. Bu davrda aholi Yaponiya bilan urushda bo‘lgan Xitoyning mag‘lubiyatidan norozi edi.

Ixetuanlar harakatining boshlanishi 1898-yilda bir vaqtning o‘zida 2 ta qo‘shni provinsiyada Shimoliy Xitoyning - Shandun va Chjilisida boshlandi. 1900-yilda Shandunda bu harakat aktivroq avjiga chiqq boshladi. Bu vaqtda Xitoyning boshqa rayonlari Sin imperiyasiga harshli bo‘lib, bu yerlar kelgindilar ta’sirida edi. 1867-yil Shandunda xorijliklar uchun asosan inglizlar uchun port Yantay ochilgan edi. Bu vaqtda arzon mahsulotlar mustamlakalarga olib ketilardi va mahalliy aholi bilan savdo-sotiq raqobati kuchayardi, bu esa dehqonlar va hunarmandlar noroziligini keltirib chiqardi. Asosiy xalq noroziligiga sabab kelgindi missionerlar bo‘lib, ular xitoyliklarning urf-odatlarini cheklab qo‘yishdi. Xitoyning Shimoliy hududlarida Yaponiya bilan olib borilgan urushda yengilish ixetuanlar qo‘zg‘olonining boshlanishiga asosiy sabab bo‘ldi. Ixetuanlar tarkibiga «dehqonlar, norozi bo‘lgan hunarmandlar, qayiqchilar, aravakashlar xizmatchilar, soldatlar, armiyadan ish topolmaganlar va shen’she tabaqalari kirdi. Inqilobchilarning shiori «Sinni saqlab qolamiz va kelgindilarga o‘lim!» -deb chiqishgan. Kelgindilar mag‘lubiyatga

uchraganlaridan so'ng ular qaytadan Sin davlatiga asos solmoqchi edilar. Ixetuanlar qo'shini, xorijliklar bilan bo'ladigan kurashda o'zlarining tumor taqinchoqlariga va rohiblarga avliyolarning duolariga g'alaba keltiradi deb ishonar edilar. Ular Shan'dun provintsiyasi chegarasida, 1896-yil iyunda Szyansuda chiqishlar uyushtirdilar. «Dadao» maxfiy boshharuvi asosida, Ularning rahbari Lyu Shi Duan edi, Uixetuanlar harakatini boshqarib turdi. «Dadao» degani - «Katta qilich»dir. Ular bir qancha uezdlarni, jumladan, Saoszyan, Shan'syan, Shandun, Danshan, Syaosyan, Fensyanni bosib oldilar. Qo'zg'olonchilar bir necha ming dehqonlardan iborat edi. Qo'zg'olonchilar bir oy mobaynida ibodatxonalarga o't qo'ydilar, xristian uylarini buzdilar, bir vaqtda boy feodallarga zarba berdilar. Lekin ularning 200-250 ta dan iborat otliq otryadlari oddiy qurollar bilan: pichoqlar, nayza, qilichlar bilan, qurollangan edilar. Ular sin qo'shinlari olib borgan kurashda yetarlicha ularga qarshilik qila olmadilar. Sin qo'shinlari Shanadun va Szyansu feodallari bilan qo'shilishgan edi. «Katta qilichlar» hujumi mag'lubiyatga uchragandan so'ng, Shandunda yarim yil davomida vaqtinchalik himoyachilar otryadi tuzilgan edi. Ular 1898-yil bahori va yozida mustahkamlandi. 1898-yil oxirida ixetuan harakatlari yana boshlandi. Yilning oxirigacha Shandun provinsiyasida 10 ta uezd va 250 ming kishilik hudud olindi. 1899-yilga kelib chiqishlar soni kuchayib ketdi, oydan oyga o'z kulminatsion nuqtasiga (oktyabr, noyabr oylarida) chiqdi va unda 40 ming kishi ishtirok etadi. Bu harakatga temiryo'lchilar va boshqalar qatnashdi, nemis hukumati Izyaogjou rayonlarida harbiy qismlarni yo'naltiradi, qo'zgonchilar otryadlari xristian cherkovlariga, nemis soldatlariga va ular (xristianlar) istehkomlariga hujum uyushtirib uylarini buzdilar. 1899-yil sentyabr-oktyabr oylarida qo'zgonchilar Pinyuan uezdlariga chiqishlar qilib, mahalliy xristianlarni olib sotarligidan norozi edilar. Aholi ixetuan otryadlarga murojaat qilib, yordam so'radi. Ular bu vaqtda shu rayon hududlarida edilar. Ixetuanlar Chjou Xun-den (osmon ajdarxosi laqabi) va rohib Yan Tyan-shun, (haqiqiy min) boshchiligida harbiylarga qaqshatqich zarba berib, Chipin uezdiga o'tdilar. Ular kelgindi missionerlarni va

pomeshchiklarni dahshatga soldilar. Bu vaqt «Xuybao» (gazetaning nomi) gazetasida Chju Xun-den 2 ming kishi kirib, Yuychen va Chipin rayonlarida ibodatxonalarni yoqmoqda va talamoqda deyilgandi. 1899-yil noyabrda hukumat Chju Xun – den va Yan Tyan –shunni qo‘lga olib, ular o‘limga hukm etiladilar. Yuan Shi-kay soldatlari qo‘zgolonchilar bilan vahshiyona harakatlar olib bordilar. Dehqonlarni qamoqqa oldilar, gumon qilinganlarni og‘ir, qiyin ahvolga soldilar. Feychen uezdi aholisi o‘limga mahkum etildi. 1900-yil 18-yanvarda «dadao» maxfiy kishisi tomonidan ingliz missioneri Briks o‘ldirildi. Bu davrlarda ixetuanlar harakatida 100 ming kishi bo‘lib, ular o‘nlab otryadlarga bo‘linib Pekin, Tyanszin, Baodin, Tunchjouda joylashgan edilar. Ixetuanlarning tanilgan yo‘lboshchilari qayiqchi Chjan De – chen soldat Sao Fu tyan, boy dehqon Xan-I-li, kichik savdogar o‘gli Lyu Shi-szyular ko‘zga ko‘ringan savdogarlardan edi. Qo‘zgolonchilar Pekinda o‘z harakatlarini hukumat qo‘shinlariga qarshi olib bordilar. Qo‘zgolonchilar bir kuch bo‘lib birlashmadilar, ular turlicha ishlar kichik-kichik va ulkan namoyishlar olib borardilar, natijada ular yengildilar. Angliya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Italiya va Avstro – Vengriya tomonidan yig‘ilish bo‘lib, yigilishda Xitoy hukumati tarkibiga qo‘shimcha otryadlar yubordilar. Kelgindi harbiylarni, suv kemalari bilan ikki kun mobaynida 15 ta chet el kemalari Chjiliga kelishdi. Har bir davlatning 50 tadan 100 tagacha kishisi Dagugaga 1900-yil 30 may kuni kelishdi. Bu Xitoyda intervensiyaning boshlanishiga sabab bo‘ldi. 1900-yilning 12-oktyabridan to 20-sentyabrgacha Sin hukumati ixetuanlarni holi qo‘ymadi. Ularga qarshi tobora yangi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarni bajarar ekanlar, Sin hukumati generallari ixetuanlarni ommaviy qirg‘in qila boshladilar. Ansu uezdida (Shentszin provinsiyasi) 100 dan ortiq ixetuanlar qatl qilingan. Sin hukumati bularning harakatini yo‘qo‘tish uchun imperialistlar bilan birlashadi. Pekin qulagandan so‘ng Sin hukumatining xonligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ixetuanlarning boshliqlari armiyadan voz kecha boshladidar. Faqat mardonavor, botir jangchilar armiya safida qoldilar. Ular kelgindilarga qarshi kurashlar olib borib turdilar. Chjili va Shanshi

hududlarida inqilobchilarning eng katta janglari bo'lib o'tdi. Chjilida ular 30 ta uezdlarda harakat olib bordilar, bir joyda jangni to'xtatmay ular bir uezddan boshqasiga o'tib turdilar. Avgust oylarigacha kelib ixetuanlar jang qiladilar. Sentyabrda Pekin rayonlaridagi intervant otryadlari ustidan bosqinchilik qiladilar. 1900-yil Oktyabr oyigacha ixetuan otryadlari intervent armiyasi bilan bir necha marta to'qnashdilar. Shuli, Dinsiyan, uezdlarida Baodina rayonida ularning qarshiliklari hali yetarli darajada edi. 1900-yilda mamlakatning Shimoliy-G'arb hududida qo'zg'olonchilar Imperator armiyasiga qarshi kurashdilar va bu qo'zg'olon martgacha davom etdi. Bu kurashda Xay-lun dehqonlari yaxshi natija ko'rsatdilar, ularning boshlig'i Lyu Dan-Shi edi. Shu yil interventlar, kelgindilar ixetuanlarning harakatlarini siqib qo'yadilar va birin ketin ularni tinchita boshlaydilar. Kelgindilar 1900-yil 24-dekabrda tinchlik shartnomasini tuzdilar. Ular Sin davlatining imperatori, Sin xalqi nomidan 1901-yil 7-sentyabrdan Xitoyning yarim mustamlakaga aylantirilishi haqidagi nizom qabul qildi. Xitoyliklar zimmasiga 39-yilda 450 mln lean kumush tovon berish belgilandi. Sin hukumati hududiga qurol olib kelish ta'qiqlandi. Bu inqilobda ixetuanlar yengilishining sababi ular zamonaviy qurollarga ega bo'lmasligi, ularning saflari mahalliy dehqonlar va hunarmandlardan iborat ekanligi, harbiy taktikaning yo'qligi, kurashni pala-partish olib borishlari bilan izohlandi.

XIX-asrning oxirgi choragida ixetuanlar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchraganidan so'ng Xitoyning kapitalistik mamlakatlarga qaramligi kuchaydi. 1901-yilda tuzilgan protokolga binoan Xitoy-Angliya-AQSH, Germaniya, Fransiya hamda Yaponiya singari mamlakatlarga 650 million oltin so'm miqdorida kontribunsiya to'lashi kerak edi. Xitoy hukumati shikoyati bilan mazkur harajatlarni to'plash muddati uzaytirilib, 1940-yilgacha cho'zildi. XIX-asrning 90-yillarida Xitoyning Lyaodun yarim oroli uchun Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida o'zaro kurash boradi. Rossiya 1894-yilda Lyoadun yarim orolini konsessiyaga oldi va bu yerda o'zining temiryo'llarini qurish ishlarini boshladi. Qisqa vaqt ichida 48 ta temir yo'l tarmog'i qurildi.

Bundan ko‘zlangan maqsad Uzoq Sharq orqali Xitoydagi xomashyoni tashib ketish, bu yerdagi Rossiya mulklarini himoya qilish maqsadida tegishli kuchlarni yetkazib turish edi. KVJD, Xitoy Sharqiy temiryo‘li, XIX-asrning oxirida kuchli kapitalistik davlatlar Xitoyga nisbatan ochiq eshiklar doktrinasi siyosatini yuritadi, ushbu siyosat zaminida Xitoyning barcha portlari hamma mamlakatlarning savdo kemalari uchun ochib qo‘yildi. Bu siyosat bir yoqlama manfaatlar himoyasiga qaratilgan edi. Xitoyning Shandun viloyatini Germaniya imperiyasi konsessiyaga oladi. Shunday qilib Xitoy XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida yarim mustamlaka, qoloq feodal davlat bo‘lib qoladi. Chet elliklar bu yerda mahsulotning 1-bosqichini ishlaydigan korxonalar ochdilar. Natijada Xitoyda mahalliy ishchilar sinfi shakllanadi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda XX-asr boshlarida mamlakatda 2 mil ishchi bo‘lgan. Ilg‘or ijtimoiy fikrli ishchilar Xitoyning ozodligi uchun kurash maydoniga kiradi. Ilg‘or ijtimoiy-siyosiy fikr va davlatni o‘zgartiruvchi harakatning boshida Sun-Yat-Sen turadi. U dehqon oilasida tavallud topgan bo‘lib, inglizlar tashkil etgan Gonkong meditsina institutida tahsil oldi. XX-asrning 90-yillarida «Xitoy uyushmalari ittifoqi» - degan tashkilot tuzadi. Ushbu tashkilot maqsadi Sun-Yat Senning 3 ta prinsipida aks etgan. 1911-yil yozida manjurlar liberal burjua - pomeschiklari talablarini rad etdilar. Ular o‘z qo‘llariga mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy kuchlarni kiritmoqda edilar.

1911-yil hukumat manjurlar imperatori avlodlaridan iborat ministrlar kengashini tuzish haqida nizom qabul qildi. Mamlakatda temiryo‘llar qurildi. 1911-yil sentyabr qo‘zg‘oloni Sichuyanda inqilobining boshlanishini tezlashtirdi. Mamlakatda manjurlarga qarshi Xubey hududida tashkilotlar tuzildi. Ular qo‘shni Xanan hududi tashkilotlari bilan aloqa bog‘laydilar. Guangjou harakatlari mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng tashkilotlar kelishdilar. Yangi qo‘zg‘olon harakatlari Xubey va Xanan hududlarida boshlandi. Bu harakatga inqilob markazi deb nom berildi. 1911-yil may oyi boshlarida ikki revolyutsion tashkilotlar orasida shartnomalar tuziladi, lekin qo‘zg‘olonchilar birlasha olmadilar. Ular qo‘shimcha

tayyorgarlik olib borishga kirishdilar. Xubey xalq harakatchilari tarkibida soldatlar, kichik ofitserlar va inqilobni boshlagan rahbarlar bor edi. Inqilobchilar armiyasida harbiy otryadlar tashkil qilingan bo'lib, ularga boshliqlar vazifa berardi. Sentyabr boshlarida Pekin buyrug'iga binoan Xubeydan 5 ta «Yangi harbiy» batalion Siguanga keltiriladi. Xalqning harakatlarini bostirish uchun 1911-yil 14-sentyabrda ikki tashkilot liderlarining yigilishi bo'ladi. Unda Sun Yat Sen shunday deydi: inqilobning taqdiri uchun ikki tashkilot ham javobgar. Agar ular birlashmasalar ko'tarilgan harakatni bostira olmaydilar. Shu maqsad bilan yaqin vaqt ichida birlashgan tashkilotlarning shtab kvartirasini tashkil qilish kerak edi. Yig'ilishdagilar Shanxayga Tszyuy, Chjen va Yan Yuy-juni yuboradilar. U yerda Uxandagi boshlanadigan harakatlarga rahbar kerak edi. 1911-yil 17-sentyabrda Xubeydan yuborilgan kishilar Shanxayga yetib keladilar. Ular Sun-Szyao-jen, Tan' Jen'-fen, Chen' Tsi-mey va bir qancha boshqa kishilar bilan uchrashadilar. Ularga Xubeydagi siyosiy xaritalar tushuntiriladi va zudlik bilan xubeyliklar Uxanda harakat boshlaydilar. Lekin rahbar "Birlashgan tashkilot" a'zolari bu rejani rad etadilar. Ular harakatlarni bir vaqtning o'zida Shanxayda, Nankinda va Uxanda olib borish kerak, degan fikrni o'rta tashlaydilar. 1911-yil 24-sentyabrda Shanxaydan «Birlashgan tashkilot» rahbarlari kelishini kutmay, ikki tashkilot yig'ilish o'tkazadi. Yig'ilishda harakatni boshlash va uni boshqaradigan kishilarni tayinlash kerak edi. Yig'ilishda harbiy polk, batalionlardan 60 kishi qatnashdi va hujum harakatlari 6 sentyabrdan belgilandi. Bu harakat boshlanishidan Yantszi sohili va Uganda olov yoqilishidan darak berar edi. Harbiy qismlarga Szyan I-u va shtab boshigi Sun U saylanadi. Xunanga bu ma'lumotlar telegramma orqali yuboriladi. Izyao Da-fenda 1911-yil 6-oktyabr kuni inqilob harakatining boshlanishini kelgindi misoionerlar eshitib, Pekin hukumatiga xabar beradilar. Manjur hukumati Uganda shunday ham tayyor armiya bilan turgan edi. 9-oktyabrdagi sodir bo'lgan voqea inqilobni yanada tezlashtirdi. Shu kuni Sun U o'z kvartirasida (Xankouda) ehtiyotkorsizlik bilan granatani portlatadi, natijada yuzi va qo'li jarohatlanadi. U bilan birga bo'lgan Li

Suo-dun yashirin yo‘l bilan uni kasalxonaga eltadi. Granataning portlashi, politsiyachilarning e‘tiborini tortadi. Politsiyachilar uyni tintuv qilganda, uydan qurol, pullar, muhrlar va inqilobchilar dokumentlari, hujjatlari chiqib qoladi. Xitoy hukumati aholini qo‘lga olishni boshlaydi. Qo‘lga olinganlar orasida inqilobchilar rahbarlarining akasi Lyu Tun bor edi. U so‘roq qilinganda inqilobchilar harakati va ularning joylashgan shtabini aytadi. Bu voqea Xubey inqilobchilari uchun kutilmagan hodisa edi. Ahvol og‘irlashadi, inqilobni zudlik bilan boshlash kerak edi, aks holda inqilobchilarni o‘lim yoki qamoq jazosi kutmoqda edi. Sun U yarador holatda Den Yuylin bilan bilan buyruq yuboradi. Szyan I ga uning sheriklariga qo‘zg‘olonchilarning urush harakatlari rejasini ishlab chiqadi va shu kuni harakatlarni boshlay olmaydilar. Ularga hukumat qo‘shini qarshilik qiladi. 9-oktyabr kuni kechqurun politsiya tashkilotchilarning maxfiy shtabiga bostirib kirib, Lyu-Yao-chen, Pen Chu-fan, Yan Xu-cheni qamoqqa oldilar. Szyan I qochishga ulgurdi. 1911-yil 10-oktyabr kuni ertalab qamoqqa olinganlar sudsiz hukumat darvozasi oldida otib tashlandilar. Manjurlardan bo‘lgan Juy Chen boshliqlarining biri bir vaqtning o‘zida shahardan chiqib ketish va kirishni to‘xtatadi. Soldatlar kazarmalarda qolishdi, politsiya va jandarma otryadlari ommaviy tintuv uyushtiradi. Gumon qilinganlar hibsga olinadi. 3 ta tashkilot a‘zosining otib tashlanganligi darhol Uganda yoyiladi. Kechqurun komandir kazarmaga kirgach, serjant Tszin chjaolun va uning soldatlari qurollarni tekshirayotgan bo‘ladi, natijada ular tomonidan urush bo‘ladi. Syun Bin-kun kazarmadan tashqariga chiqib osmonga qarata uch-to‘rt marta o‘q uzadi, bu inqilobning boshlanishi edi. Tog‘ hududida joylashtirilgan inqilob harakatchilari birin-ketin hukumat harbiylarini qo‘lga ola boshlaydilar Harbiylarning ko‘pchiligi inqilobchilar bilan birlashadi. Natijada ular bir necha to‘plar, qurol-yaroqlar millionlab potronlarga ega bo‘ldilar. Pulimyotchi diviziyalarni qo‘lga oladilar. 10-oktyabr kuni kechqurun inqilobchilar shaharga bostirib kiradilar, ular bilan hukumat qo‘shinlari orasida qizg‘in kurash boshlandi.

1911-yil 11-oktyabr tongda inqilobchilar butun shaharni egallab hukumat boshliqlari, harbiy shtablarni, politsiya mahkamasini va boshqa hukumatga qarashli idoralarni qo'lga oladilar. 1911-yil 11-oktyabr kuni bu ma'lumotlar, yangiliklar Ugan, Xankou va Xanyanga borib yetadi. Ertalab manjur hukumati ag'darildi. Xanyanda ham eng katta zavod harbiy qarshiliksiz ishchilar tomonidan qo'lga olinadi. Bu qo'zg'olon oqibatida Xitoyning uch shahri Ugan, Xankou, Xanyan - manjurlar hukumronligidan chetlashtirildi. Ularning avlodlari ham yo'q qilindi. Mamlakatda 1912-yil 1-yanvardan – 1-aprelgacha Guanchjou hukumati Sun Yat Sen (1866-1925) boshchilik qildi. Biroq Chan Kaysha xoinlik qildi, hukumat uzoq yashamadi. Sinxay inqilobi oqibatida 300-yillik Sin sulolasi hukmronligi tugab, Respublika e'lon qilindi. Inqilobchilar shartlari qabul qilindi va mamlakatda Konstitutsiya joriy etildi. Xitoy Respublika deb e'lon qilindi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ixetuanlar harakatining mohiyati nimada edi?
2. Sinxay inqilobining sabablarini keltiring?
3. Sinxay inqilobi qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Xitoy qachon respublika deb e'lon qilindi?

TEST TOPSHIRIQLARI:

1. I anglo-afgʻon urushi qachon boʻlgan?

- A. 1839-1841;
- *B. 1840-1842;
- S. 1825-1830;
- D. 1842-1844.
- E. 1845-1850.

2. II angl-afgʻon urushini gʻalaba bilan tugallagan afgʻon amiri kim edi?

- A. Habibullaxon
- B. Ayubxon
- *S. Abdurahmon
- D. Sheralixon
- E. Yoqubxon.

3. Maymanda jangi roʻy bergan sanani aniqlang?

- A. 1885-yil,
- *B. 1880-yil,
- S. 1884-yil,
- D. 1890-yil,
- E. 1886-yil.

4. Manjurlar (Chin) sulolasi Xitoyda nechanchi yillarda hukmronlik qildi?

- *A) 1644 - 1911
- B) 1668 - 1910
- C) 1656 - 1757
- D) 1605 - 1858
- E) 1616 - 1825

5. Xitoyda «shenshi»lar kim edi?

- A) Dehqonlar
- B) qora ishchilar
- C) feodallar
- *D) olimlar
- E) imperator oilasining aʼzolari

6. 1 - qora dori urushi qachon boʻlib oʻtdi?

- *A) 1840 - 1842
- B) 1842 - 1844
- C) 1850 - 1864
- D) 1866 - 1868
- E) 1840 - 1846

7. Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirgan shartnoma qayerda imzolandi?

- A) Pekin
- *B) Nankin
- C) Shanxay
- D) Kuanchjou
- E) Xankou

8. Xitoyda tuzilgan jamiyatlarni aniqlang?

- A) Oq nilufar
- B) Uch nuqta
- C) Jamiyat baxt-saodati
- D) A va B
- *E) ABC

9. Kajarlar sulolasining birinchi vakili kim edi?

- A. Fath Alishoh,
- *B. Og‘a Muhammad
- S. Nasriddinshoh,
- D. Ahmadshoh
- E. Feruzshoh.

10. Kajar hukumdorligi davrida eng keng tarqalgan jazo turini aniqlang?

- *A. Ko‘zni o‘yish,
- B. Jarima,
- S. Qamchi bilan savalash,
- D. Zindonband qilish,
- E. Qatl etish.

11. Eronda bobiyalar qarakati qachon bo‘lib o‘tdi?

- A. 1850-1852,
- B. 1840-1848,
- S. 1845-1855,
- D. 1847-1857,
- *E. 1848-1852,

12. Bahoulla g‘oyalari qaysi mamlakatda vujudga keldi.

- *A. Eronda
- B. Turkiyada
- S. Xitoyda,
- D. Indoneziyada
- E. Filippinda.

13. Timar (tumoriy) nima?

- *A) In‘om qilingan yer
- B) Harbiy garnizon
- C) Bo‘sh dala
- D) A va B
- E) A, B, C

14. Tanzimatning birinchi davri qaysi yillarni o‘z ichiga oladi?

- A) 1830-1856
- *B) 1839-1856
- C) 1815-1870
- D) 1856-1870
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

15. II-Tanzimat qaysi mamlakatlar ta‘sirida o‘tkazildi?

- A) Germaniya - Rossiya
- B) Yaponiya - Angliya
- C) Rossiya - Angliya
- *D) Angliya - Fransiya
- E) Fransiya - Rossiya

16. Tanzimat tashabbuskori kim edi?

- A) Mustafo poshsho
- *B) Rashid poshsho
- C) Midxat poshsho
- D) Anvar poshsho
- E) Jamol poshsho

17. Hindistonda Boburiylar sulolasi qaysi yillarda hukmronlik qildi.

- A) 1525-1700
- *B) 1526 - 1858
- C) 1605-1757
- D) 1609 - 1801
- E) A va B

18. Inglizlar Hindiston savdosini boshqarish uchun qanday kompaniya tuzdilar.

- A) Merkuriy
- B) Sharqiy
- *C) Ost-Indiya
- D) Gvineya
- E) Levant

19. Hindiston general-gubernatorligi markazi bo'lgan shaharni aniklang

- A) Dehli
- B) Bombay
- C) Suranati
- D) Bengaliya
- *E) Kalkutta

20. Robert Klayv va Uoring Gastingslar kim edi?

- A) Bengal gubernatori
- B) Savdogar
- C) Ma'rifatchi
- *D) harbiy zobitlar
- E) A va D

21. Taypinlar qo'zg'oloni boshida kim turgan?

- *A) Xun – Syu - Syuyan
- B) Taypin Tyango
- C) Ixetuanlar
- D) Hech kim turmagan

22. Taypinlar harakati necha davrga bo'linadi va qaysi yo'llarni o'z ichiga oladi?

- *A) 2 davrga 1850-1856; 1856-1864
- B) 3 davrga 1850-1854; 1854-1856; 1856-1858
- C) Ikkala javob ham noto'g'ri
- D) 1 davrga 1850-1860

23. Tanzimat

- *A) Turkcha, islohot
- B) Turkcha, qaror
- C) Turkcha, farmoyish
- D) Turkcha, konstitutsiya

24. Tanzimat tashabbuskori bo'lmagan Turkistonda o'lim topgan shaxsni aniqlang?

- A) Jamol poshsho
- *B) Anvar poshsho
- C) Rashid poshsho
- D) Mustafo poshsho

25. Tanzimatlarning natijasi.

- *A) Turkiyaning qudratini tiklay olmadi
- B) Ijobiy bo'ldi
- C) Turkiya Yevropani 1 qismini o'ziga birlashtirdi
- D) Yevropaga qaram bo'ldi

26. Tanzimatning II-davri.

- A) 1830-1856
- B) 1815-1820
- C) 1839-1856
- *D) 1856-1870

27. Tokugava rejimining maqsadi nima?

- A) Eziluvchilar sinfini nazoratda ushlash edi
- *B) Samuraylarning imtiyozli mavqeini saqlab qolish
- C) Dehqonlarni himoyalash
- D) Uning bir maqsadi bo'lmagan

28. Turkiya tarixida nechta Tanzimat o'tkazilgan?

- A) 1 marta
- B) 3 marta
- C) 4 marta
- *D) 2 marta

29. Turkiyada 1912-yil iyuldan 1913-yil yanvargacha qaysi partiya egalladi?

- A) Yosh turklar
- B) Ozodlik va birlik
- *C) Ittixod va taraqqiy
- D) Ozodlik

30. Turkiyada konstitutsiyaon monarxiyani kim bekor qilgan?

- *A) Abdulhamid
- B) Mitxat podsho
- S) Selim II
- D) Selim III

**FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILADIGAN
ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -T. :Sharq;1998.
2. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat - elgilmas kuch. -T.: Ma‘naviyat; 2008.
3. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O‘zbekiston; 2011.
4. Anvar Qosimov. Turkiya. Toshkent, O‘qituvchi, 1992.
5. Guber, Kim, Xeyfis. Novaya istoriya stran Azii i Afriki Moskva, Prosvesheniye, 1982.
6. Rozaliev Y. N. Novaya i noveyshaya istoriya Azii i Afriki. Moskva, Vishshaya shkola, 1987.
7. Ivanov I. Ocherki novoy istorii Irana. Moskva, Nauka, 1982.
8. Yerskin U. Bobur Hindistonda. Toshkent, Fan, 1995.
9. Ulyanov I. Tri lidera Indii. Moskva, Politizdat, 1989.
10. Hayitov Sh. A. Osiyo Afrika va mamlakatlari Yangi zamon tarixi. (Ma‘ruzalar matni) Buxoro, - 2007.

MUNDARIJA

Kirish	3
Tokugava Syogunati davrida Yaponiya	6
XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asrning boshlarida Afgʻoniston ..	12
Chin sulolasi davrida Xitoy. Xitoyda 1 va 2-qora dori urushi, ularning oqibatlari.	19
XVII-XIX-asrlarda Eron. Bobiylar harakati.	29
XVII-XIX-asrlarda Usmoniylar saltanati. 1- va 2 -tanzimat.	36
Hindistonda Boburiylar sulolasi hukmronligi ostida. Angliyaning mustamlakachilik siyosati.	45
XX-asrning boshlarida Turkiya va Erondagi inqiloblar.	52
Hindistonda 1857-1859 yillardagi sipohiylar qoʻzgʻoloni. Xitoyda Taypin-Tyango davlati va siyosati.	58
Xitoyda xalq harakatlari. Ixetuanlar urushi. Sinxay inqilobi va oqibatlari.	66
Test topshiriqlari	75
Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar roʻyxati.	79

Adadi 200 nusxa. Qogʻoz bichimi A4, Hajmi 5.0 b.t.
Bosishga tavsiya etilgan 28.11.2016 yil. Buyurtma № 9.

“Nafis poligraf servis” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Samarqand shahri, Buyuk ipak yoʻli koʻchasi, 67-A.